2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 242 (1031), 2023-yil 21-noyabr, seshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

BANK TIZIMIDAGI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-noyabr kuni bank tizimida transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlari muhokamasi bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Bu sohani isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida so‘nggi uch yilda banklar kapitali 1,8 baravarga, yillik kredit ajratish hajmi 2 baravarga ko‘paydi. 4 ta bank ilk bor yevrobond chiqarib, xalqaro kapital bozorlaridan 1 milliard dollar resurs olib keldi. “Ipoteka-bank”ka strategik xorijiy investor jalb qilindi. 13 ta yangi xususiy bank tashkil etildi, Vengriya, Qozog‘iston va Gruziyaning nufuzli banklari yurtimizda faoliyat boshladi. Onlayn bank xizmatlari hajmi 2,7 barobarga oshdi.

Shu bilan birga, bank sektorida raqobat kuchaymoqda, bank xizmatlariga aholi va tadbirkorlar tomonidan talab oshmoqda. Bu sohada transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, kelgusi yillar uchun ustuvor vazifalarni belgilab olishni taqozo etayotir.

Xususan, davlat ulushiga ega banklarni xususiylashtirishga tayyorlash, ularning qimmatli qog‘ozlarini IPOga chiqarish, sohaga tajribali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Xalqaro reyting kompaniyalari bilan hamkorlikni kuchaytirib, banklarning reytingini oshirish bo‘yicha o‘rta muddatli chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi. Shuningdek, sohada kadrlar tayyorlash tizimini zamon talablariga moslashtirish kerakligi ko‘rsatib o‘tildi.

Yig‘ilishda bank rahbarlari transformatsiya va xususiylashtirishga tayyorgarlik ko‘rish, xodimlarni o‘qitish, sohada ilg‘or IT yutuqlarni joriy qilish bo‘yicha rejalarini aytdi.

Har bir bank o‘zi sarmoya kiritgan loyihalarni chuqur tahlil qilib, ishga tushishini kuzatib borishi, hududlar va sohalarda samaradorligi yuqori bo‘lgan loyihalarni amalga oshirishi zarurligi ta’kidlandi.

O‘zA

XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI LOYIHALAR TAHLIL QILINDI

20-noyabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida ichimlik suvi, qishloq xo‘jaligi va sog‘liqni saqlash sohalarida xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar ijrosi ko‘rib chiqildi.

So‘nggi yillarda xalqaro moliya institutlari ko‘magida amalga oshirilayotgan loyihalarning soni ham, ko‘lami ham kengayib bormoqda. Xususan, oxirgi yetti yilda shunday institutlar mablag‘lari hisobidan 16 milliard dollar o‘zlashtirildi. 103 ta loyiha ishga tushirildi.

Bularning natijasida 5 millionga yaqin aholining kundalik hayoti yaxshilanishiga ta’sir qilgan 9 mingta ijtimoiy hamda infratuzilma inshootlari qurildi va ta’mirlandi. 38 ta yangi yirik sanoat quvvati ishga tushirilib, 6,5 mingta yuqori daromadli ish o‘rni yaratildi.

Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar hisobiga, sohalarga yangi texnologiyalar, zamonaviy yondashuvlar ham kirib kelyapti.

Lekin hamma tarmoqda ham natijadorlik birdek emas. Masalan, Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida joriy yilda 238 million dollar xalqaro moliya institutlari mablag‘lari o‘zlashtirilishi kutilmoqda. Bu mo‘ljaldan ancha kam.

Umuman, so‘nggi yillarda sohaga 2,4 milliard dollar jalb qilinib, shundan 1,3 milliard dollari o‘zlashtirilgan. Lekin kechikkan loyihalar ham bor. Misol uchun, Andijon, Samarqand va Toshkent viloyatlarida agrologistika markazlari tashkil etish kechikmoqda.

Sog‘liqni saqlash vazirligida 877 million dollarlik 11 ta loyiha mavjud. Ularning aksariyati amalga oshirilmoqda. Lekin nefrologiya va urologiya muassasalarini jihozlash, poytaxtimizning Yashnobod tumanida kattalar uchun ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi qurish, milliy referens laboratoriyasi tashkil qilish loyihalari bo‘yicha investitsiya o‘zlashtirish boshlanmagan.

“O‘zsuvta’minot” tarmog‘ida qiymati 2,1 milliard dollarlik 22 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Shundan 8 ta loyihaning o‘z vaqtida ishga tushmasligi ehtimoli bor.

Bu ko‘p hollarda loyiha guruhlari faoliyati bilan bog‘liq ekani ko‘rsatib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari loyihalar bajarilishida vazirlarning mas’uliyatini oshirish, har birini xalqaro ekspertlar ishtirokida muhokama qilib borish hamda mablag‘larni samarali ishlatish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Mutasaddilar yil yakunigacha va 2024-yilda ishlarni jadallashtirib, kechikishlarni bartaraf etish, loyihalarni sifatli bajarib, natijasini ta’minlash bo‘yicha axborot berdi.

O‘zA

PREZIDENT QARORLARI — HAYOTDA VA NAZORATDA

SUV XO‘JALIGIDA IJRO INTIZOMI

sohani jadal rivojlantirish kafolati

Mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash, har bir sohada yuksak samaradorlikka erishish borasida yuritilayotgan davlat siyosatining talabi shuki, lavozimidan qat’i nazar, har bir rahbar qog‘oz bilan emas, aksincha, muammo bilan bevosita, yuzma-yuz ishlashi lozim. Har bir hujjatni tayyorlashda joyiga chiqqan holda o‘rganishi, aholi va iste’molchilarning fikrlarini tinglashi, murojaatlarni e’tiborsiz qoldirmasligi hamda mavjud resurslarni tahlil qilishi zarur va shart.

Ayniqsa, ijro intizomini mustahkamlashda tizimdagi har bir xodimning mas’uliyatini oshirish, qat’iy intizom o‘rnatish, ularda kasbiy g‘urur, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik va halollik hissini uyg‘otish nihoyatda muhim.

Yangi O‘zbekistonning qisqa davrda bosib o‘tgan yo‘lida **“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak”** tamoyil hayotiy tasdig‘ini topib, amaliy natijalar bera boshladi. Xalq bilan ochiq muloqot, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashning mutlaqo yangi, kuchli ijtimoiy himoya va milliy qadriyatlarga yo‘g‘rilgan instituti qaror topdi.

Albatta, xalqimiz farovonligi yo‘lida xizmat qilishni o‘zining ezgu amali va kasbiy burchi deb bilgan suv xo‘jaligi xodimlari uchun ham ijro intizomi ish samaradorligini ta’minlovchi eng muhim hamda asosiy faoliyat mezonlaridan biridir.

Davomi 2-betda

TASHRIFDAN TASHRIFGACHA

ERISHILAYOTGAN YUTUQLAR YANGI DOVONLARGA YO‘L OCHMOQDA

Davlatimiz rahbarining 16-17-noyabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi samarali va amaliy voqelikka boy bo‘ldi. Xususan, “To‘palang” suv manbaidan ekologik toza ichimlik suv bilan ta’minlash loyihasining birinchi bosqichi ishga tushirilishi janubiy voha ahlining yana bir asriy orzusini ro‘yobga chiqardi. Ushbu bosqichda Sariosiyo, Denov, Sho‘rchi va Qumqo‘rg‘on tumanlariga obihayot kirib borgan bo‘lsa, kelgusi yil oxiriga qadar loyiha to‘liq amalga oshirilishi natijasida yana 7 tuman va Termiz shahrida yashovchi qariyb ikki million aholi ushbu markazlashgan ichimlik suvdan bahramand bo‘ladi.

Tashrif davomida Prezident Boysundagi “Mustaqillikning 25 yilligi” gaz-kimyo majmuasi qurilishi, “To‘palang” GESida olib borilayotgan modernizatsiya ishlarini ko‘zdan kechirdi. “Zarchob-3” GES qurilishiga start berildi. Shuningdek, viloyatdagi bir necha ishlab chiqarish loyihalari bilan yaqindan tanishgan davlatimiz rahbari tashrif yakunida viloyat faollari ishtirokida o‘tkazilgan yig‘ilishda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Unda qayd etilganidek, kelgusi yili viloyatga 1,5 milliard dollarlik investitsiya kiritiladi. Pirovardida, sanoatda 12 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarishga erishiladi. Shuningdek, eksport ko‘rsatkichi 500 million dollarga yetkaziladi. Import esa 100 million dollarga qisqaradi. Bundan tashqari, 500 ming xorijiy sayyohga xizmat ko‘rsatish uchun sharoit yaratiladi hamda 400 ming aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan dasturiy vazifalar ro‘yobga chiqariladi. Bu kabi keng ko‘lamli sa’y-harakatlar esa Surxon ahlini yanada hamjihatlikda mehnat qilib, yangi-yangi marralarni zabt etishga undamoqda. Turli soha vakillarining bu boradagi fikr-mulohazalarida ham bu jihatlar o‘z ifodasini topmoqda.

Davomi 3-betda

TARAQQIYOT YO‘LI

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH

ta’lim tizimini isloh qilishdan boshlanadi

Texnologiya, demografiya, beqarorlik va global iqlim o‘zgarishlari sharoitida inson kapitali taqchilligi xavfli darajada oshib bormoqda. Mojaro va pandemiyalar inson kapitaliga halokatli ta’sir ko‘rsatishi, odamlarning hayotiga zomin bo‘lishi, tirikchilik vositalarini yo‘q qilishi, ovqatlanishning yomonlashishi, sog‘liqni saqlash va ta’lim xizmatlaridagi beqarorlikka sabab bo‘lishi mumkin. Hozirgi vaqtda inson kapitali jamiyatning eng qimmatli resursi bo‘lib, tabiiy salohiyat yoki to‘plangan boylikdan ko‘ra, muhimroq ahamiyat kasb etmoqda.

Inson kapitali, fan, ta’lim va biznesning o‘zaro ta’siri, bu ta’sirning iqtisodiyot va jamiyat rivojiga samarasi bilan bog‘liq masalalar keyingi yillarda jahon va milliy hamjamiyat siyosiy kun tartibida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib turibdi. Bu jarayon bevosita ta’lim tizimi orqali ta’minlanadi. Shu bois, jahon amaliyotida o‘zini oqlagan, samarali natijani bergan va berib kelayotgan tajribadan unumli foydalangan holda, O‘zbekistonda ushbu tizimni isloh qilishning zamonaviy tendensiyalarini ishlab chiqish muhim.

Davomi 5-betda

BUGUNNING GAPI

ISHONCH, RAG‘BAT VA TENGLIK

ishbilarmon ayollar safini kengaytiradi

Tadbirkorlik qoniga singgan xalqmiz, har holda ota-bobolarimiz orasida savdogarlar ko‘p bo‘lganini eshitganmiz. Hozir esa tadbirkorlik nihoyatda katta yo‘nalishga aylanib, barcha sohalarga kirib bordi. Endi qurilishdan tortib, agrar sohada ish yuritayotganlargacha tadbirkorga aylanmoqda.

Yurtimizda oxirgi yillarda haqiqiy tadbirkorlik muhiti shakllanib, kichik va o‘rta biznes hatto qo‘shimcha daromad manbaiga aylanganiga guvoh bo‘lyapmiz. Hozir istalgan kasb egasi mavjud imkoniyatlardan foydalanib, qo‘shimcha ravishda ishbilarmonlikka ham qo‘l urishi odatiy hol. Bu esa hududlarda aholi bandligini ta’minlash, oilalarni kambag‘allikdan chiqarishda asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Ya’ni bitta kichik yoki o‘rta biznes vakili paydo bo‘lishi hisobiga bir necha o‘nlab kishi ishli bo‘lyapti.

Shu bois, yurtimizda soha vakillarini doimiy qo‘llab-quvvatlashning aniq va samarali mexanizmi yaratildi. Bu tadbirkorlikka bepul o‘qitishdan tortib, ishni boshlash, kredit olish, imtiyozlar berish va ko‘plab yordamlarni o‘z ichiga oladi. Prezidentimizning joriy yil 15-noyabrdagi “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ham 150 mingta kichik tadbirkorlik subyekti faoliyatini yo‘lga qo‘yish, o‘rta tadbirkorlik subyektlari sonini esa 2,5 barobar oshirish belgilangan. Buning uchun yangi imkoniyat, qo‘shimcha imtiyozlar berilib, aholida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, biznes tashabbuslarini moliyalashtirish va loyihalarini amalga oshishiga ko‘maklashishga qaratilgan yaxlit tizimni joriy etish bo‘yicha qator vazifalar bor. Talabgorlarni tadbirkorlikka o‘qitish masalalari ham ularning asosiylaridan biri.

Davomi 4-betda

YASHIL MAKON

O‘N YIL NARINI O‘YLASANG...

Ko‘chat ekib, bog‘ yaratish xalqimizga xos milliy qadriyatlardan. Bugun esa bu an’ana milliy harakatga aylandi va ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi asosida hududlarni obod etish, bo‘sh maydonlar, ko‘cha va xiyobonlarga mevali va manzarali ko‘chat o‘tqazishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur loyiha doirasida O‘zbekiston bo‘ylab yiliga kamida 200 million tup daraxt va buta ko‘chatlarini ekish ko‘zda tutilgan.

Ushbu loyiha bir yillik tadbir emas, balki har yili davom etadigan xayrli jarayon. Navoiy viloyatida ham 2022-yil davomida 50 ming gektardan ortiq yerda yashil maydon tashkil etilib, mevali va manzarali nihollar ekildi. Aholi yashash manzillari, korxona va tashkilotlar atrofi, shuningdek, qarovsiz maydonlar yashil hududlarga aylantirildi. Joriy yil bahor mavsumida viloyatda 8 million 924 ming tup mevali va manzarali ko‘chat o‘tqazildi.

Davomi 2-betda

PREZIDENT QARORLARI — HAYOTDA VA NAZORATDA

SUV XO‘JALIGIDA IJRO INTIZOMI

sohani jadal rivojlantirish kafolati

Shavkat HAMROYEV, suv xo‘jaligi vaziri

Boshlanishi 1-betda

Shu ma’noda, suv xo‘jaligi sohasidagi keng qamrovli islohotlarning natijadorligi, birinchi navbatda, vazirlik tizimining barcha bo‘g‘inlarida ijro intizomi yuqori talablar asosida tashkil etilishiga bevosita bog‘liq.

2023-yil yanvar-oktabr oylarida Suv xo‘jaligi vazirligi markaziy apparatiga jami 2 ming 691 ta hujjat, shu jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatidan 116 ta, Prezident Administratsiyasidan 122 ta, Vazirlar Mahkamasidan 960 ta, boshqa vazirlik va idoralardan 1 ming 396 ta hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklaridan 197 ta xat va hujjat, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslardan 863 ta ariza va murojaat kelib tushgan. Shundan 2 ming 600 tasi (96,7 foiz) o‘z muddatida nazoratdan chiqarilgan.

Hisobot davrida ishlab chiqarish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha jami 48 ta buyruq va 5 ta hay’at qarori qabul qilingan, 30 ta nazorat rejasi, yo‘l xaritalari va chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, tasdiqlangan.

2023-yilning 10 oyida “Edo.ijro.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimiga kiritilgan 192 ta hujjat to‘liq nazoratga olingan, 191 tasi o‘z muddatida nazoratdan chiqarilgan.

Ijro intizomiga mas’uliyatsizlik bilan qaragani, topshiriqlarni talab darajasida bajarmagani uchun 20 nafar rahbar xodim, shu jumladan, vazirlik markaziy apparatining 3 rahbar xodimiga, tizim tashkilotlari rahbarlaridan 9 nafariga hayfsan e’lon qilingan, vazirlik markaziy apparatining 1 xodimi va tizim tashkilotlarining 2 rahbar xodimiga nisbatan o‘rtacha oylik ish haqining o‘ttiz foizi miqdorida jarima qo‘llangan, 5 xodim esa egallab turgan lavozimidan ozod qilingan.

> **Ijro intizomi bo‘yicha muhim yo‘nalish jismoniy va yuridik shaxslardan tushayotgan murojaatlar bilan ishlashdir. O‘tgan davrda ariza va murojaatlarning 816 tasi yoki 94,5 foizi belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqilgan va natijasi murojaat mualliflariga ma’lum qilingan. 47 tasining ijrosi muddat talab qilgani bois, ularni hal etish bo‘yicha choralar ishlab chiqilgan.**

Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan sayyor qabullar rejasiga muvofiq, vazirlik rahbariyati tomonidan

joriy yil yanvar-oktabr oylarida ellikka yaqin jismoniy va yuridik shaxs hamda ularning qonuniy vakillari qabul qilinib, murojaatlari bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatildi.

Joriy yilning **noyabr-dekabr** oylarida **“Edo.ijro.uz”** ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimiga kiritilgan jami 568 ta topshiriq mavjud. Ular ijrosini ta’minlash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilib, har bir topshiriq bo‘yicha mas’ul xodimlar biriktirilgan, bajarish mexanizmlari belgilab berilgan.

Vazirlik tizimida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar to‘liq hisobga olinmoqda, ularning ro‘yxati muntazam ravishda shakllantirilib, ijrochilar, muddatlar va bajarish mexanizmlari aniq ko‘rsatilgan topshiriqlar tayyorlanishi hamda mas’ullarga yetkazilishi tizimli ravishda nazoratga olingan.

Har hafta yakuni bo‘yicha ijro muddati yaqinlashayotgan hujjatlar tahlil qilinib, tegishliligiga qarab, boshqarma yoki bo‘lim rahbarlariga vazifalarning bajarilish holati bo‘yicha ogohlantirish berilmoqda. Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishi yuzasidan tizimli nazorat tashkil etilgan hamda chuqur tahlillar asosida monitoring olib borilmoqda.

Shu bilan birga, ijro intizomini yanada samarali tashkil etish, xodimlarning ijro yo‘nalishidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida Adliya vazirligi bilan hamkorlikda yangi talqindagi “Edo.ijro.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimini joriy qilish masalalari bo‘yicha o‘quv-amaliy seminar o‘tkazildi.

Shu kunlarda mamlakatimiz bo‘ylab “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar keng quloch yoymoqda. Ushbu loyiha yurtimizni tom ma’noda yashillikka burkovchi xalqchil harakatga aylandi. Tadbirlarda respublikamiz suv xo‘jaligi xodimlari ham faol ishtirok etyapti.

Vazirlar Mahkamasi topshirig‘i bilan Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani G‘ijol qishlog‘idagi tog‘oldi hududdan Suv xo‘jaligi vazirligi uchun 42 gektar yer ajratildi. Suvchilar bu yerda 21,5 ming tup bodom ko‘chati ekib, “Suvchilar bog‘i” bunyod etishni boshlab yubordi. Shu bilan birga, qator oralariga to‘qsonbosti ekinlar, bog‘ atrofiga terak ko‘chatlari ekiladi. Tashkil etilayotgan hasharlarda vazirlik markaziy apparati, tizimdagi respublika tashkilotlari, viloyatlardagi suv xo‘jaligi tashkilotlaridan, asosan, yoshlardan iborat xodimlar qatnashmoqda.

Topshiriqda Suv xo‘jaligi vazirligi irrigatsiya va melioratsiya obyektlari hududlarida ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish hamda suv xo‘jaligi obyektlarining qirg‘oqlari va qirg‘oq bo‘yi hududlarida ko‘chat ekishga mas’ul etib belgilangan. Bu borada mas’uliyatni chuqur his qilgan suvchilar 10 million tup mevali va manzarali daraxt ko‘chati, 5 million tup qalamcha va buta ko‘chatini ekish tashabbusi bilan chiqdi. Bugunga qadar respublika bo‘yicha suv xo‘jaligi tashkilotlari xodimlari tomonidan ekilgan jami ko‘chatlar soni 4,5 million tupdan oshib ketdi.

Barcha hududlardagi tizim tashkilotlarida har kuni ko‘chat ekish ishlari jadal davom ettirilyapti.

Joriy yil 1-2-noyabr kunlari Toshkent shahrida Davlatlararo suv xo‘jaligini muvofiqlashtirish komissiyasining 85-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘iston va O‘zbekistonning suv xo‘jaligiga mas’ul vazirlik va idoralari rahbarlari qatnashdi.

Samarali o‘tgan muzokaralardan so‘ng komissiya a’zolari Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimlari va yosh tadqiqotchilar, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti talabalari bilan muloqot qildi.

> **Mehmonlar “Yashil makon” umummilliy loyihasiga uyg‘un tarzda ko‘chat ekish tadbirida ham qatnashib, yoshlarga ibrat bo‘ldi. Tashabbuskor yoshlar ekilgan ko‘chatlarga “do‘stlik daraxtlari”, deb nom berdi. Bu misolni keltirishimdan maqsad — qo‘shni davlatlardan kelgan mehmonlar ham yurtimizni yashillikka burkovchi bu ishlarga havas bilan qarab, yuqori baholadi.**

Noyabr oyi boshida Qoraqalpog‘iston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari va meliorativ ekspeditsiyalar boshliqlari uchun besh kunlik malaka oshirish o‘quv kursi bo‘lib o‘tdi. Xuddi shu tartibda kelgusi yil mart oyigacha tizimdagi barcha tashkilotlar rahbarlari va mutaxassislari uchun o‘quv seminarlar tashkil etiladi, ularning ijro yo‘nalishidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha ham mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.

Maqsadimiz yangi O‘zbekistondagi yangilanishlar jarayonida suvchilarimizning dunyoqarashini o‘zgartirish, bilim va mas’uliyatini oshirish, zimmamizdagi vazifalarni sifatli bajarib, xalqimizga halol, vijdonan xizmat qilishdir.

YASHIL MAKON

O‘N YIL NARINI O‘YLASANG...

Boshlanishi 1-betda

“Yashil makon” umummilliy loyihasining kuzgi mavsumiga start berilishi, aytish mumkinki, ko‘pmillatli xalqimizni ezgu tashabbusga chorladi. Navoiy viloyatida ham kuzgi mavsumda 6 millionga yaqin ko‘chat ekish rejalashtirilgan va ayni vaqtda bu jarayon hududlarda qizg‘in davom etmoqda.

Navbahor tumani aholisi ham o‘zlari istiqomat qilayotgan ko‘chayu mahallalar, foydalanilmayotgan yerlarni obod etishga kirishgan. Tumanning Paxtakor mahallasi hududida joylashgan 4 gektar yer maydonida bog‘ yaratilib, unga “Navoiy viloyati hokimligi bog‘i” deb nom berildi. Ushbu bog‘ni barpo qilish jarayonida viloyat hokimi Normat Tursunov xamda hokimlik xodimlari, harbiy qism xizmatchilari, xotin-qizlar, yoshlar, nuroniylar, korxona va tashkilot mas’ullari tomonidan 5 ming tup manzarali va ming tup mevali daraxt ko‘chatlari ekildi.

— Xalqimiz ko‘chat ekishni savobli, ezgu ish sanab keladi. Bog‘ yaratgan insonning ishi ham, nomi ham ulug‘langan. Yoshligimizda ana shunday insonlar yaratgan bog‘larda o‘ynab, mevalaridan bahramand bo‘lib ulg‘ayganmiz. Bugungi kunda ham bu ezgu an’ana davom ettirilib, umummilliy loyihaga aylangani quvonarli. Bu jarayon aholi uchun ham, ekologik barqarorlikni ta’minlashda ham manfaatli tadbirdir, — deydi mehnat faxriysi Orif Naimov.

Tabiatda yashil hududlar kengaysa, “yashil qalqon”lar shakllantirilsa, ekologik muammolar bartaraf qilinib, barqarorlik ta’minlanadi. Jarayonda faol ishtirok etayotgan nuroniylarni yoshlar uchun ibrat maktabi, deyish mumkin. Ushbu xayrli tashabbus yashil hududlarning ko‘payishi, iqlim o‘zgarishlarining oldini olish barobarida yosh avlod qalbida ona tabiatni asrash bilan bog‘liq qadriyatlarning davom etishiga xizmat qiladi.

Tumanning Armijon mahallasida ham yashil maydonlarni kengaytirish borasida salmoqli ishlar olib borildi. Nuroniy otaxonlar ko‘chat ekish bo‘yicha o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashdi. Ularning tavsiyasi asosida ekilayotgan ko‘chatlar tumanning iqlim sharoitidan kelib chiqib, suvsizlik va kasalliklarga chidamli mos turlari tanlab olindi.

Ayni paytda Navbahor tumanida “Yashil makon” loyihasining kuzgi mavsumida 650 ming tup ko‘chat ekish rejalashtirilgan. Tuman hokimligi zaxirasidagi 7 gektar tashlandiq yer maydoni obod qilinib, ko‘pning ko‘magi bilan 35 ming tut va qayrag‘och ko‘chatlari ekildi.

— Ushbu xayrli tadbirda tumanimiz aholisi faol ishtirok etayotgani kishini quvontiradi. Keng jamoatchilik vakillari bilan birgalikda turli tashkilotlar xodimlari ham yashil maydonlarni kengaytirishga munosib hissa qo‘shmoqda. Mahallamizda foydalanilmay turgan yer maydondalarida bog‘ yaratyapmiz, hududimiz yanada obod bo‘lmoqda, — deydi Armijon mahallasidagi hokim yordamchisi Jamshid Sobirov.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida nihol zaxirasini yaratish, xususan, ko‘chatxonalar tashkil etish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Tumanda 2023-yil kuz mavsumida ekiladigan 650 ming tup ko‘chatning 200 mingtasi ko‘chatchilik yo‘nalishidagi fermer va dehqon xo‘jaliklari, 250 mingtasi aholi tomorqasi va boshqa ko‘chatchilik bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetkazib beriladi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, kuz faslida sovuq havoga chidamli bo‘lgan ignabargli daraxtlar, shuningdek, tol, qayin, yong‘oq, katalpa va kashtan ko‘chatlarini bemalol ekish mumkin. Bu turdagi daraxtlarning ildizi bahorga qadar zaminga mustahkam o‘rnashadi. Dehqon ta’biri bilan aytganda, kuzda nihol ekish bahordagidan ko‘ra qulayroq va bu faslda ekish davri uzoqroq davom etadi. Kuzda o‘tqazilgan ko‘chatlarning ildizida qish davomida tuproqqa moslashuvchanlik paydo bo‘ladi. Bu esa bahorda yaxshi tutib, tezroq o‘sishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, bu muhim jarayonning boshqa bir jihatiga ham e’tibor qaratish zarur. Maqsad faqat son izidan quvish emas, balki yangi ekilgan ko‘chatlarning har birini talafotsiz ko‘kartirib olish, o‘sib daraxt bo‘lgunicha doimiy nazorat va parvarish qilish borasida ham aniq choralar belgilangan.

— Ko‘chatlarni ekish jarayonida, avvalo, tuproq tarkibi, iqlim sharoiti va suv ta’minoti hisobga olinishi lozim. Shu talablardan kelib chiqib, ekiladigan daraxt turlari tanlanmoqda. Viloyatimiz iqlimiga, asosan, akatsiya, qayrag‘och, cho‘l hududiga esa saksovul ko‘proq mos keladi. Ekilgan ko‘chatlarning nazorati ham yo‘lga qo‘yilyapti. Har bir ko‘chat “Yashil makon” platformasiga manzili bo‘yicha kiritib boriladi. Yo‘l chetlariga ekilgan daraxtlarni maxsus transport yordamida sug‘orish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Har bir hududda yaratilayotgan yashil hududlarga mas’ul tashkilotlar ham belgilangan, — deydi Navoiy viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Furqat Qodirov.

Nurota tumanida ham yo‘l yoqalari, klaster va fermer xo‘jaliklari ekin yerlari va dala chetlariga 529 ming tup manzarali, mevali daraxt hamda buta ko‘chatlari va qalamchalarini ekish rejalashtirilgan. Bu jarayonda tumandagi har bir mahallada “Mahalla bog‘lari”ni yaratish, yashil hududlarni ko‘paytirish, xonadon va ko‘chalarni obod qilish ishlari davom etmoqda. Tuman hokimligi tashabbusi bilan yaratilayotgan yashil bog‘ni barpo qilishga mehnat faxriylari, davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari, faol yoshlar, xotin-qizlar munosib hissa qo‘shmoqda.

Xalqimizda “Bir yilning g‘amini yesang don, o‘n yil narini o‘ylasang daraxt ek” degan naql bor. Bugun yaratilayotgan bu yashil bog‘lar kelajak avlod uchun, ona tabiat musaffoligi uchun, insonlar salomatligi, turmushi farovonligi uchun ko‘p yillar davomida xizmat qiladi.

Qolaversa, inson tabiatning go‘zalligini nafaqat asrab-avaylashi, balki uning yanada gullab-yashnashi uchun o‘z hissasini qo‘shmog‘i lozim. Atrof-muhitni muhofaza qilish, kelajak avlodga tabiiy boyliklarini bus-butun yetkazish, ekologik muammolarni bartaraf etishga hissa qo‘shish oldimizda turgan muhim vazifalardan. Ayni damda hududlarda tashkil etilayotgan bu kabi tadbirlar ham ana shunday maqsadlarga hamohangdir.

“Yangi O‘zbekiston — yashil makonda birga yashaylik!” degan olijanob g‘oyani qo‘llab-quvvatlash, bu umummilliy harakatning ishtirokchisi bo‘lish har birimiz, avvalo, o‘zimiz, qolaversa, yaqinlarimiz, kelajak avlod oldidagi mas’uliyat. Bir so‘z bilan aytganda, bugun ekilayotgan har bir nihol ertaga katta daraxtga aylanadi, biz nafas olayotgan havoni tozalaydi, ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi.

G‘olib ABDUSALOMOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

BIZ VA DUNYO

O‘ZBEKISTON SKANDINAVIYA DAVLATLARIDAGI ENG YIRIK OZIQ-OVQAT YARMARKASIDA ISHTIROK ETDI

MAMLAKATIMIZ MAHSULOTLARINI YEVROPANING 20 GA YAQIN DAVLATIGA EKSPORT QILISH BO‘YICHA DASTLABKI KELISHUVLARGA ERISHILDI

O‘tgan haftada Shvetsiyaning Malmyo shahrida bo‘lib o‘tgan Skandinaviyadagi eng yirik organik mahsulotlar yarmarkasi — “Nordic Organic Food Fair” ko‘rgazmasida O‘zbekistonning organik mahsulotlari namoyish etildi.

Elchixona tomonidan tashkil qilingan milliy bo‘lmada O‘zbekistonning “Global Export Company” kompaniyasi mamlakatimiz zaminida yetishtirilgan organik quritilgan mevalar hamda dukkakli mahsulotlarni namoyish qildi.

“Nordic Organic Food Fair” har yili o‘tkazib kelinadigan yarmarka bo‘lib, organik sertifikatiga ega rang-barang oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar uning peshtaxtalaridan joy oladi.

Ushbu xalqaro tadbirda “Global Export Company” MCHJ Yevropaning yigirmaga yaqin mamlakati, shu jumladan, Shvetsiya, Norvegiya va Daniya kompaniyalari bilan o‘zbek mahsulotlari eksporti bo‘yicha dastlabki kelishuvlarga erishdi.

Shuningdek, mamlakatimiz elchixonasi va “Nordic Organic Food Fair” tashkilotchilari o‘rtasida ushbu ko‘rgazmaning 2024-yil 9-10-oktabr kunlari Stokgolmda o‘tkaziladigan navbatdagi tadbirida ham O‘zbekiston vakillarining ishtirok etishi yuzasidan fikr almashildi.

“Dunyo” AA
Stokgolm

TASHRIFDAN TASHRIFGACHA

ERISHILAYOTGAN YUTUQLAR YANGI DOVONLARGA YO‘L OCHMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Vatan va xalq manfaati uyg‘unlashganda

Rayhon RAHIMOVA,
Surxondaryo viloyat hokimligi huzuridagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kursi direktori, “Shuhrat” medali sohibasi:

— Surxon vohasini so‘lim Sangardaksiz, Amudaryo sohillari-yu To‘palang daryosisiz tasavvur qilish qiyin. 2021-yilda Termizda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda Prezidentimiz “To‘palang” suv ombori ulkan va toza suv manbai ekanini ta’kidlab, Surxondaryo viloyatida ichimlik suv bilan bog‘liq muammoga alohida to‘xtalgan va uning yechimi borasida mutasaddilar oldiga muhim vazifalarni qo‘ygan edi. O‘shanda vohada markazlashgan tarmoqlar orqali ichimlik suv bilan ta’minlanish darajasi 60 foiz atrofida bo‘lgan.

Haqiqatan, “To‘palang” suv omboriga suv tog‘lardagi qor va muz erishidan yig‘ilishi, eng muhimi, bu manbaning toza va foydali minerallarga boyligi hisobga olinib, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Surxondaryo aholisi uchun muhim ijtimoiy loyiha amalga oshirila boshladi.

Loyiha doirasida suv omboridan to Termiz shahrigacha 380 kilometr masofaga metall quvurlar tortilishi, suv tozalash, bosimni kamaytirish va suv yig‘ish inshootlari qurilishi rejalashtirildi. Uning 159 kilometri magistral, 221 kilometri shahar va tumanlarni bog‘lovchi ichki tarmoqlar bo‘lib, tashrifdan tashrifga qadar 147 kilometr quvur tortib bo‘lindi. Qolaversa, suv tozalash, bosimni kamaytirish va 5 ta suv yig‘ish inshooti ham barpo etildi.

Tashrifning ilk kunida Sariosiyo tumani Bog‘iston mahallasida ushbu loyihaning birinchi bosqichi ishga tushirilishi tom ma’noda quvonchli voqea bo‘ldi. Pirovardida, Sariosiyo, Denov, Sho‘rchi va Qumqo‘rg‘on tumanlari aholi xonadonlariga zilol suv kirib bordi. Yana bir muhim jihati, suv o‘z oqimi bilan tushishi sababli 8,6 million kilovatt-soat elektr energiyasi iqtisod qilinishi aholi uchun yanada manfaatli bo‘ldi.

Loyihaning ikkinchi bosqichida viloyatning markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlanish darajasi 90 foizga yetkazilishi ham ma’lum qilindi. Ushbu xayrli loyiha 2024-yilda nihoyasiga yetadi.

Nazarimda, bugun yangi O‘zbekistonning taraqqiyotini ko‘zlagan ezgu maqsadlar bog‘i mevaga kirdi. Bu bog‘larga nihol o‘tqazish, ularni sovuq shamollardan asrab-avaylash oson kechmayotgani aniq. Albatta, bunday o‘zgarish va yangilanishlar o‘z-o‘zidan bo‘lmayotganiga barchamiz guvohmiz.

O‘zgarishlar odamlar turmushida o‘z aksini topmoqda

Avazmurod AVAZOV,
Sariosiyo tumanidagi “Sebzor” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi:

— Davlatimiz rahbari tashrif chog‘ida mahallamiz hayoti, fuqarolarning turmush tarzi, aholi salomatligini ta’minlashga doir ishlar bilan yaqindan tanishdi. Gapning sirasini aytganda, markazdan ancha uzoqda joylashgan qishlog‘imizga shaxsan Prezident kelishini sira kutmagandik.

Bu bizni juda quvontirdi, ruhlantirdi. Shuni alohida ta’kidlashni istardimki, “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi eng olis hududlarda ham bo‘y ko‘rsatayotgani bu, avvalo, odamlar ong-u tafakkuridagi o‘zgarishlar mahsulidir. Bugun tom ma’noda xalqimizning hayotga, voqeliklarga bo‘lgan munosabati o‘zgargan. Kishilarda yaratuvchanlik ishtiyoqi, ishbilarmonlik ruhi, baxtli yashashga bo‘lgan intilishi kuchaygan. Buni birgina mahallamiz hayotidagi ijobiy o‘zgarishlar, qishloq odamlari turmushidagi yuksalishlar misolida ko‘rish mumkin.

Mahallamiz hududida 7 ming 600 dan ortiq aholi istiqomat qiladi. Ular asosan, bog‘dorchilik, chorvachilik va sabzavotchilik bilan shug‘ullanadi. Rosti, keyingi yillarda yerga bo‘lgan munosabat o‘zgardi, dehqonchilik madaniyati oshdi. Tomorqadan unumli foydalanish, omilkorlik asosida ishlash evaziga yiliga 3 marotaba hosil yetishtirayotgan qishlog‘imiz odamlarining turmushiga fayz va baraka kirgani ham bor gap.

Davlatimiz rahbari “Barakatullo Davr Baraka” fermer xo‘jaligi bog‘ida bo‘lib, poliz ekinlari rivojini ko‘zdan kechirdi. Hademay qish fasli eshik qoqishiga qaramay, hamon ekindan bo‘shamagan maydonlar, yashnab turgan dalalarni ko‘rib, odamning bahri-dili ochiladi. Jumladan, fermer xo‘jaligidagi 6 gektarlik olma va 1,3 gektarlik xurmo daraxtlari qator oralarida ertagi poliz mahsulotlari ham yetishtirilgani xo‘jalik a’zolari moddiy daromadini yanada oshirdi.

Albatta, mo‘l qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirish masalaning bir jihati bo‘lsa, uni sotish, eksportga yo‘naltirish ham juda muhim sanaladi. Prezidentimiz ayni masalaga e’tibor qaratib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ilmiy yondashuv zarurligini ta’kidladi. Joylarda in-vitro laboratoriyalarini tashkil etish, urug‘chilikni yaxshilash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport hajmini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berdi.

Mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, aholi uchun qulay turmush sharoitlarini yaratishga bo‘lgan e’tibor tufayli yo‘llarimiz ta’mirlandi. Aholini barqaror elektr energiyasi bilan ta’minlash choralari ko‘rilib, yangi transformatorlar o‘rnatildi, simyog‘ochlar yangisiga almashtirildi. Maktab va maktabgacha ta’lim muassasasi kuz-qish mavsumiga shay holga keltirilishi barobarida, tibbiyot punkti faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Holbuki, avvallari qishlog‘imiz odamlari oddiy tibbiy xizmatdan foydalanish uchun 25-30 chaqirim uzoqlikda joylashgan shifoxonaga qatnashga majbur edi. Endilikda umumiy amaliyot shifokori, doya va hamshiralar tunu kun shu yerning o‘zida aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishga shay.

Darhaqiqat, yurtimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, avvalo, inson qadrini ulug‘lashga, uning manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bularning bari aholi faravonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mingdan ortiq ish o‘rni yaratiladi

Muhammadi QODIROV,
Boysun tuman hokimi o‘rinbosari:

— 2019-yil aprel oyida Prezidentimiz tashabbusi bilan Kofrun qishlog‘idagi gaz konini o‘zlashtirishga doir dastlabki amaliy qadamlar tashlandi. O‘sha yilning dekabrida “Surhan Gas Chemical Operating Company” xorijiy korxonasi tomonidan zavod qurishga kirishildi. Qiymati 2,9 milliard dollarga teng bo‘lgan ushbu loyihaga binoan bu yerda yiliga 5 milliard metr kub gazni qazib chiqarish va qayta ishlash quvvati yaratiladi. Zavodni qurish va 20 ta quduqda burg‘ilash ishlarini amalga oshirish uchun hozirga qadar 1 milliard 450 million dollarlik investitsiya o‘zlashtirildi. Loyihaning birinchi bosqichi kelgusi yil may oyida ishga tushirilishi, 2025-yilda esa to‘la quvvat bilan mahsulot ishlab chiqarish ko‘zda tutilmoqda.

Gaz-kimyo majmuasi ishga tushishi bilan yuqori daromadli mingdan ortiq ish o‘rni yaratiladi. Shuningdek, turdosh sohalarni rivojlantirish evaziga bu raqam ikki barobar oshishi rejalashtirilmoqda. Xususan, yana bir istiqbolli kon — yonuvchan slanes konini o‘zlashtirish loyihasi shular jumlasidan.

Bir so‘z bilan aytganda, asrlar bo‘yi iqtisodiy imkoniyati cheklangan hududda yirik loyihalarning amalga oshirilishi natijasida Boysun tumani aholisi hayotida bugun yangi davr boshlandi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

> YURTIMIZDA YOSHLARNI HAR TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLASH, ULARNING TASHABBUS VA LOYIHALARINI RAG‘BATLANTIRISH, MODDIY VA MA’NAVIY KO‘MAK BERISH ISHLARI O‘Z ISHI, BIZNES FAOLIYATINI BOSHLAMOQCHI BO‘LGAN MEN KABI YOSHLARGA KENG YO‘L OCHIB BERMOQDA.

Tashabbus va ko‘mak faoliyatimiz istiqbolini ta’minlayapti

Ozodbek ABDUXALILOV,
tadbirkor:

— Til bilgan, dunyo ko‘rgan kishilar yangilikka, o‘zgarishlarga ishtiyoqmand bo‘ladi. Pekindagi oliy ta’lim muassasasida 3 yil tahsil olish asnosida tadbirkorlik ko‘nikmalarimni oshirish, biznes faoliyatimni yo‘lga qo‘yish ishtiyoqi tug‘ildi. Yurtimizga qaytgach, bu borada amaliy ishlarga kirishdim. Termiz shahrining Tinchlik mahallasi hududida yangidan tashkil etilgan yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasida o‘z loyihamni amalga oshirishga kirishdim. Bu o‘z-o‘zidan bo‘lgani yo‘q, albatta. Yurtimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning tashabbus va loyihalarini rag‘batlantirish, moddiy va ma’naviy ko‘mak berish ishlari o‘z ishi, biznes faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan men kabi yoshlarga keng yo‘l ochib bermoqda.

Surxondaryoda ko‘p miqdorda qishloq xo‘jaligi, xususan, bog‘dorchilik mahsulotlari yetishtiriladi. Ularni qayta ishlash orqali ichki bozor ehtiyojini ta’minlash, xaridorgir mahsulotlarni xorijiy davlatlarga eksport qilish orqali katta iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin. Ayni shu jihatlarni inobatga olgan holda, mevani qayta ishlash loyihasini amaliyotga tatbiq etdik. 250 ming dollarlik ushbu loyihamiz imtiyozli kredit asosida moliyalashtirildi. Korxonamiz o‘z faoliyatini boshlashi bilan 25 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Hozirda eng zamonaviy texnologiyalar asosida anor va boshqa mevalardan tabiiy sharbat tayyorlab, xalqqa yetkazib beryapmiz.

Davlatimiz rahbari tashrif chog‘ida faoliyatimiz bilan ham yaqindan tanishib, tadbirkorlar bilan muloqotda bo‘ldi. Bu uchrashuv har birimizga motivatsiya berishi bilan birga,amaliy intilishlarimizni yanada kuchaytirdi. Bizni yangi g‘oya va tashabbuslarga undadi. Shundan kelib chiqqan holda, kelgusida ishlab chiqarish tarmoqlarimizni yanada kengaytirish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish niyatidamiz.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Ilhom RAHMATOV yozib oldi.

MUNOSABAT

Yangi O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohadagi keng ko‘lamli islohotlar boy tariximizni tiklash, asrab-avaylash, ma’naviy va madaniy merosni o‘rganish, allomalar qoldirgan bebaho ijod namunalarini asl qo‘lyozma manbalar asosida tadqiq etish, jamoatchilikka yetkazish imkonini bermoqda. Ayniqsa, bugun yurtimizda faoliyat yuritayotgan xalqaro darajadagi ilmiy-tadqiqot markazlarining jamiyat ma’naviy hayotini isloh qilishga, ma’rifiy sohani yanada rivojlantirishga va xalq tafakkur olamini kengaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy ishlari mazkur yo‘nalishdagi muhim urinishlardir.

AJDODLAR MEROSI EZGULIKKA CHORLAYDI

Muzaffarxon JONIYEV,
Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori v.v.b.,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Diniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot markazlari jamiyat va davlat ma’naviy rivoji yo‘lida muhim ilmiy faoliyat sifatida yangidan-yangi izlanishlar, yangicha dunyoqarash, umuminsoniy g‘oyalar bilan ulkan tamadduniy maqsadlarni hamda “Uchinchi Renessans — Yangi O‘zbekiston” g‘oyasini amalga oshirishda ma’rifiy asos vazifasini o‘taydi. Xususan, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari va O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi yangi O‘zbekistonni Uchinchi Renessans bosqichiga olib chiqishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur markazlarda buyuk muhaddis, faqih, kalom, mutasavvif olimlari merosi o‘rganilishi, tadqiq etilishiga dunyo ilm ahli katta qiziqish bildirayotir. Jumladan, Al-Azhar universiteti professori Shayx Mahmud Abdurahmonning: **“Termizlik ulamolar bizga yuksak ilmiy meros qoldirgan. Bu diyor olimlari qoldirgan ilmiy merosdan butun dunyo hozirgacha bahramand bo‘lib kelmoqda.**

Bu borada bugungi O‘zbekiston barchamizga o‘rnak bo‘lgan holda, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari orqali yetakchilik qilmoqda”, degan e’tirofi bizga iftixor tuyg‘usini beradi. Darhaqiqat, ilmiy-tadqiqot markazlarining faoliyati muhim ma’naviy-ma’rifiy tayanch nuqta vazifasini o‘taydi.

Joriy yil 16-noyabr kuni Prezidentimizning Surxondaryo viloyatiga, xususan, Hakim Termiziy maqbarasiga tashrifi chog‘ida termiziy allomalar ilmiy merosini chuqur o‘rganish, ulardan keng xalq ommasini xabardor qilish orqali jamiyatdagi sog‘lom ma’naviy muhitni yanada mustahkamalash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Haqiqatan, yurtimiz allomalari asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, tinchliksevarlik, bag‘rikenglikka yo‘g‘rilgan ilg‘or g‘oyalarni targ‘ib etish, keng jamoatchilikka yetkazish, ayniqsa, yosh avlod ong-u shuuriga singdirish, ularni munosib yetuk avlod ruhida tarbiyalash bugungi globallashuv davrida har qachongidan dolzarb sanaladi.

Dunyoda bo‘layotgan notinchliklarni to‘g‘ri baholagan holda, sog‘lom mafkurani shakllantirish, fuqarolarni buzg‘unchi toifalar ta’siridan asrash, ularga allomalarimiz asarlari, o‘gitlarini yetkazish har jihatdan muhimdir.

Termizdan ko‘plab allomalar yetishib chiqqan. Xususan, tafsir, hadis, aqida va adabiyot sohasiga oid maktablarda Hakim Termiziy, Abu Ja’far Muhammad Termiziy, Imom Abu Iso Termiziy, Abu Bakr Varroq Termiziy kabi termiziy nisbasi bilan 100 dan ortiq alloma ijod qilgan. Ular tomonidan har bir davr uchun ahamiyatli va dolzarb bo‘lgan ilg‘or g‘oyalar ilgari surilgan.

Masalan, IX asrda Imom Termiziy “Sunani Termiziy” asari orqali Termiz hadis maktabini dunyoga tanitgan bo‘lsa, XII asrda Majiduddin Ja’far ibn Ali Musaviy astronomik tadqiqotlar uchun Movarounnahrdagi ilk rasadxonalardan biriga asos solgan. XIV-XVI asrlarda Mushkinqalam Termiziy, Kashfiy Termiziy va Mir Musavvir Termiziy kabi ijodkorlar Xuroson hamda Hindistonda adabiyot va rassomlik san’ati maktablarini yaratgan.

Allomalarimizning yot g‘oya va aqidalarga qarshi fikrlari ham har bir davr uchun ahamiyatlidir. Chunonchi, IX-X asrlarda jaholat, turli buzuq aqida va qarashlarning jamiyat ma’naviy hayotiga salbiy ta’siri kuchaygan bir davrda Hakim Termiziy o‘z asarlari orqali xorijiylik, jahmiylik, rofiziylik kabi mutaassib va radikal oqimlarga qarshi keskin raddiyalar bergan.

XVII-XVIII asrlarda So‘fi Olloyor adashgan guruhlarga qarshi xalqchil raddiyalarini ilgari surgan. Ushbu jihatlar Termizda dunyo ilmiy jamoatchiligini jalb qilgan holda xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkazish taklifining naqadar o‘rinli va dolzarb ekanini ko‘rsatadi.

Albatta, termiziy allomalarning ilg‘or g‘oyalari bugungi zamon kishisini hushyorlikka chorlaydi. Chunki jaholat kuchaygan, savodsizlik avj olgan, ma’rifatdan mosuvolik bo‘lgan joyda adashishlar, yot g‘oyalar ta’siriga berilishlar yuzaga keladi. Buning uchun yagona ma’rifiy qurol allomalar merosini chuqur o‘rganishdir. Shundagina yosh avlod ongu shuurini bugungi tahlikali zamonda avj olgan yot g‘oyalardan asragan va himoyalagan bo‘lamiz.

Umuman olganda, global xavf-xatarlar chuqur ildiz otib borayotgan bir davrda milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar merosini har tomonlama chuqur o‘rganish va uni xalqqa yetkazish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Yoshlarimiz ilmiy markazlar tomonidan chop etilayotgan boy ma’naviy asarlardan xabardor bo‘lib borishi g‘oyat muhim.

Chunonchi, ular ajdodlarimizning ilmiy salohiyatiga munosib baho bera olishlari barobarida, bizgacha yetib kelgan noyob meros — asarlarning mazmun-mohiyatini ham chuqur anglashi, idrok etishi kerak. Buning uchun nodir asarlarda bayon etilgan chin umuminsoniylik g‘oyalarini sodda va xalqchil tarzda yosh avlodga yetkazish lozim. Zero, ajdodlarimiz merosi asrlar davomida ma’rifat, tinchlik va bunyodkorlikka chorlab, ezgulik chaqirig‘i sifatida xizmat qilib kelgan.

Ularni ilmiy asosda izchil o‘rganish va targ‘ib etishga qaratilgan xalqaro darajadagi ilmiy anjumanlar tashkil qilinishi esa qadim yurtimizning azaliy ilmiy-amaliy, ma’rifiy qudratini namoyon etib, o‘z navbatida, termiziy allomalar merosini dunyo ilmiy jamoatchiligiga yaqinroq tanitish imkonini beradi.

> JORIY YIL 16-NOYABR KUNI PREZIDENTIMIZNING SURXONDARYO VILOYATIGA, XUSUSAN, HAKIM TERMIZIY MAQBARASIGA TASHRIFI CHOG‘IDA TERMIZIY ALLOMALAR ILMIY MEROSINI CHUQUR O‘RGANISH, ULARDAN KENG XALQ OMMASINI XABARDOR QILISH ORQALI JAMIYATDAGI SOG‘LOM MA’NAVIY MUHITNI YANADA MUSTAHKAMALASH BO‘YICHA TOPSHIRIQLAR BERILDI.

BUGUNNING GAPI

ISHONCH, RAG‘BAT VA TENGLIK

ishbilarmon ayollar safini kengaytiradi

Boshlanishi 1-betda

Xo‘sh, bu jarayonda xotin-qizlarning ishtiroki qanday bo‘ladi? Bugun ayol tadbirkorlar soni kun sayin ortib bormoqda. Mamlakatimizdagi tadbirkorlik subyektlarining salkam 30 foizi xotin-qizlar tomonidan boshqarilmoqda. To‘g‘ri, bu hali yetarli emas, ammo bundan olti yil oldingi holat bilan solishtirganda, ancha yuqori natija.

Yurtimiz aholisining 17 milliondan ziyodini tashkil etayotgan xotin-qizlar orasida kichik ishbilarmonlardan tortib, og‘ir sanoat, qurilish materiallari, boshqa murakkab ishlab chiqarishlarda faoliyat yuritayotganlarni ham uchratyapmiz. Bu, avvalo, ularda oila, uy-ro‘zg‘ordan tashqari, ijtimoiy hayotda ham o‘z o‘rnini topishga intilish yuqori ekanidan dalolat bo‘lsa, boshqa tomondan, yurtimizda shunga yarasha shart-sharoit yaratilayotgani bilan bog‘liq. Ushbu ko‘mak, ishonch va qo‘llab-quvvatlov ularda jamiyat hayotiga daxldorlik, iqtisodiy taraqqiyotimizga hissa qo‘shish istagini oshirmoqda. Bir vaqtlar hatto erkaklar uchun o‘ta mashaqqatli ish hisoblangan tadbirkorlik

bugunga kelib, xotin-qizlarimiz ham uddalasa bo‘ladigan kasbga aylandi. Ular sohada yaratilayotgan barcha qulaylik va sharoitlardan erkaklar bilan barobar, hatto qo‘shimcha imtiyozlardan ham teng huquqda foydalanmoqda.

Tadbirkorlik ta’lim olishga undadi

Tadbirkor ayollarning o‘z ishlari haqida to‘lib-toshib aytadigan gaplari sohadan uzoq insonda ham ishtiyoq uyg‘otadi, kishida tadbirkor bo‘laman, degan maqsad paydo qiladi. Ana shunday suhbatdoshlarimizdan biri sirdaryolik Zamira Salimova ham 3 ta nodavlat maktabgacha ta’lim muassasasiga rahbarlik qiladi. Mirzaobodning haqiqiy tashkilotchi, tirishqoq ayollaridan. Oila, uy-ro‘zg‘or ishlari, 4 farzand tarbiyasidan ortib, yana yuzlab bolalarning ta’lim-tarbiya olishiga hissa qo‘shyapti. Tadbirkorligi ortidan 50 nafarga yaqin xotin-qizni ish bilan ta’minlagan.

Ayolning non va non mahsulotlari ishlab chiqaradigan sexi bor. Hozir viloyatda maxsi ishlab chiqarishni rivojlantirish va bu orqali yana o‘nlab xotin-qizni ish bilan ta’minlash harakatida. Tadbirkor bilan suhbatlashib, bu borada uzoq yillik tajribaga ega bo‘lsa kerak, degan xayolga bordim. Yanglishibman, Zamira opa yakka tartibdagi tadbirkorligini 2019-yilda 25 o‘rinli bog‘cha tashkil etishdan boshlagan. Bugun “Yangi tadbirkor kelajagi” MCHJga rahbarlik qilib kelmoqda.

— Asli kasbim bo‘yicha 15 yil davomida davlat maktabgacha ta’lim muassasasida hamshira bo‘lib ishlaganman, — deydi Zamira Salimova. — Bolalar bilan ishlash juda yoqadi. Shu bilan birga, tadbirkorlikka ham qiziqishim bo‘lgan. Doim xususiy bog‘cha ochib, biznesimga ega bo‘lish haqida o‘ylardim. Ammo bunga na imkoniyat, na sharoit bor edi. Keyingi yillarda tadbirkorlikka keng yo‘l berilayotganini ko‘rib, ish boshlashga qaror qildim. Avvaliga oson kechmadi, biroq harakatda davom etdim. Tadbirkor xotin-qizlarga berilayotgan kredit, soliq imtiyozlari ko‘mak bo‘ldi. Asta-sekin ish ko‘lami kengayib bordi. 2021-yildayoq Guliston shahrida 25 o‘rinli yana ikkita bog‘cha ochdim. 2022-yilda Mirzaoboddagi bog‘chamni 50 o‘ringa kengaytirdim. Shu kunlarda esa viloyatda imkoniyati cheklangan bolalar uchun MTT ochish harakatidaman. Ushbu bog‘cha reabilitatsiya hamda ta’lim-tarbiyani o‘z ichiga oladi.

Hududda 40 mingdan ziyod xotin-qiz bor, shundan tadbirkor ayollar soni 200 nafardan oshgan. Ularning aksariyati oilaviy tadbirkor. Shunga qaramay, hudud iqtisodiy rivojiga munosib hissa qo‘shyapti. Ularga havas qilib, o‘z tadbirkorligini boshlash istagidagi xotin-qizlar ko‘p. Talabgorlar uchun bepul o‘quv kurslari tashkil etilgan.

Qahramonimiz ham shunday kurslarda o‘qib, bilimini mustahkamlagan. Hozirgacha hududda tashkil qilinadigan turli seminarlarda faol ishtirok etib, tadbirkorlikka oid yangi bilimlar, huquqiy asoslarni o‘rganib boradi. Oliy ma’lumotli bo‘lishni ham maqsad qilgan. Ayni vaqtda nodavlat universitetlardan birida sirtqi yo‘nalishda tahsil olyapti. Shu bilan birga, hududdagi xotin-qizlarni tadbirkorlikka o‘qitishda ham ishtirok etadi. Iqtidorli bitiruvchilarni ish bilan ta’minlashga ko‘maklashadi. Axir uning kelgusidagi rejalari ko‘p. Faoliyatini yanada kengaytirib, ko‘proq xotin-qizni ish bilan ta’minlashni rejalashtirgan. Ayollarning jamiyatda munosib o‘rin topishi, bilim olib, sevimli sohasida ishlashi tarafdori.

Ishsizlikdan katta grandgacha

Chindan ham, hozir har sohada bilim, tinimsiz o‘rganish, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay olish juda muhim. O‘z ustida ishlamagan, yangiliklar bilan hamqadam

bo‘lmagan odam rivojlanishdan to‘xtab qoladi. Ayniqsa, tadbirkorlik doimiy izlanishni talab etadi. Yurtimizda yaratilgan yangi tadbirkorlik muhitida sog‘lom raqobatga dosh bera olish uchun o‘qib-o‘rganishdan to‘xtamaslik kerak.

Namanganlik Oydina Ahmadaliyeva oddiy uy bekasi edi. O‘rta maktabni tugatgach, farzandlar tarbiyasi bilan andormon bo‘ldi, oradan vaqt o‘tib, moddiy qiyinchilik sabab ish izlay boshladi. Qo‘lida biror kasbi, hunari bo‘lmagan ayol tadbirkorlik kurslaridan birida o‘qidi. 7 kunlik bepul o‘quv kursi kimlar uchun shunchaki vaqt o‘tkazishdek ko‘ringan bo‘lsa, Oydina uchun hayotini tubdan o‘zgartirib yuborgan yorug‘likka aylandi.

— Farzandlarim birin-ketin katta bo‘lgach, xarajatlar ham ortdi. Bir tomonda ro‘zg‘or tashvishi, uni to‘ldirishning o‘zi bo‘lmaydi, — deydi Oydina Ahmadaliyeva. — Avvaliga ancha vaqt ish izlab ovora bo‘ldim, ammo odamning qo‘lida kasbi yoki hunari bo‘lmasa qiyin ekan. Oxiri Bandlikka ko‘maklashish markazigа murojaat qildim. Ular qaysi yo‘nalishga qiziqishimni so‘rab-surishtirdi. O‘zim istagan yo‘nalishda o‘qishim yoki ish topishimga yordam ko‘rsatishlarini, biz kabi qiynalgan ayollarga ko‘mak berish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini aytdi. Yangi tizim asosida 2019-yili “Ayollar daftari”ga kiritildim. Shundan so‘ng qiziqishimga ko‘ra, tadbirkorlik kurslariga yo‘naltirishdi. Chunki men ham o‘z biznesimni yo‘lga qo‘yishni istayotgandim. Ammo xayolimda ming ikkilanish, qo‘rquv bor edi. Mendan hech narsa ketmaydi, degan o‘y bilan tadbirkorlik kursida tahsil oldim. Ish boshlashimga bilimsizlik, uquvsizligim xalal berardi. Imkoniyatdan foydalanib, ko‘plab kurslarda birin-ketin o‘qidim. Hatto kompyuter savodxonligini ham egalladim, biznes ko‘nikmalar bo‘yicha darslar oldim. O‘shanda hamma tadbirkorlik qilish mumkinligi va buning uchun barcha eshiklar ochiqligini ko‘rdim. Xususiy tadbirkorligimni boshlashga umid paydo bo‘ldi. Bu umid ishonchga, ishonch esa aniq maqsad va amaliy harakatlarga aylandi.

Qahramonimiz 2021-yilda ilk bor tadbirkorlikka qadam qo‘ydi. BMTning Taraqqiyot dasturi hamkorligidagi Finlyandiya loyihasida ishtirok etib, 13 ming dollar grant sohibasiga aylandi. Loyiha tashabbuskorlari bu mablag‘ hisobidan ayolga mevani qayta ishlash uskunalarini olib berdi.

Hozir Oydina Ahmadaliyeva Chortoq tumanidagi ko‘zga ko‘ringan tadbirkorlardan. Korxonasi mevalarni quritib, qayta ishlashga ixtisoslashgan. Tayyor mahsulot ichki bozorga yetkaziladi. Endi tashqi bozorni ham o‘rganyapti, mahsulotlarni xorijga eksport qilish harakatida. O‘nga yaqin ayolni ish bilan ta’minlagan.

Bundan tashqari, hududdagi o‘zi kabi tadbirkorlikka ishtiyoqi baland xotin-qizlarga dars o‘tib, ish boshlashi uchun ko‘mak berib kelyapti. Har doim o‘qish, izlanishda. Hozir Namangandagi xususiy universitetlardan birining 1-bosqich talabasi. Shu bilan birga, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining tadbirkor xotin-qizlarga mo‘ljallangan dasturida ham o‘qib, bilimini oshiryapti.

— Ayollar qonuniy huquqlarini bilsa, ularga berilayotgan imtiyozlardan xabardor bo‘lsa, hech bir yo‘nalishda qiynalmaydi, — deydi tadbirkor. — Aytsak, ko‘pchilikka erish tuyulishi mumkin, ammo bundan 6-7 yil oldin xotin-qizlarning tadbirkor bo‘lishi chindan juda mashaqqatli edi. Salohiyati, bilimi borlari ham turli to‘siqlar, hujjatbozlik bilan bog‘liq qiyinchiliklar sabab ish boshlay olmasdi. Bugun har kim tadbirkor bo‘lishi mumkin, intilish, ishtiyoq bo‘lsa bas. Tumanimizda Chortoq temir yo‘l logistika markazini tashkil etish bo‘yicha harakatlar boshlangan. Germaniya loyihasi bo‘yicha hududdagi 21 ta fermer xo‘jaligini birlashtirib, bog‘dorchilik kooperatsiyasini tashkil qilyapmiz. Bu ham mamlakatimizda tajriba sifatida amalga oshirilayotgan yangi loyihalardan biri. Bunday loyihalar tadbirkor ayollarning jahon bozoriga chiqishiga yanada keng yo‘l ochadi.

“Sevimli ishim tushkunlikdan olib chiqdi”

Faol, ishbilarmon ayollarni rag‘batlantirib borish ham bugun davlatimiz siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Har yo‘nalishda turli tanlovlar o‘tkazilib, munosiblar taqdirlanyapti. Shu yilning noyabr oyida bo‘lib o‘tgan an’anaviy “Anor — 2023” tanlovi g‘oliblari ham jamiyatimizning eng faol, tashabbuskor xotin-qizlaridir.

Qashqadaryolik Dildora Mo‘minova tanlovning “Eng yaxshi fermer” nominatsiyasi g‘olibiga aylandi. Ko‘rinishidan ziyoli ekani bilinib turadigan ayol suhbat chog‘ida asli kasbi o‘qituvchi ekani, 20 yil maktabda o‘quvchilarga saboq berganini aytdi. Tadbirkorlikka esa bolaligidan qiziqqan va bu ishtiyoq vaqti kelib jiddiy maqsadga aylandi.

— Asli qishloqda har bir qiz ishbilarmon, uddaburon bo‘lib voyaga yetadi. Uy yumushlaridan tashqari dala ishlari, molhol, tikish-bichishni qilaverib, tadbirkor bo‘lib qolganini bilmay ham qoladi, — deydi Dildora opa. — O‘zim ziyoli oilada tug‘ilganman va bolalikdan juda ko‘p narsaga qiziqqanman. Ko‘p qirrali bo‘lishni yoqtiraman, bitta yo‘nalish bilan chegaralanib qolmayman. Eslasam, tadbirkorlikka ham bolalikdan qiziqqan ekanman. Ilk ishimni dadam va ukalarim bilan birgalikda yuritganmiz. Hozir esa oilam, farzandlarim ko‘makchi. Uzoq yillar o‘qituvchilik qildim. Ammo doim ichimda tadbirkorlikka ishtiyoq bo‘lgan. Shu bois, 2015-yilda “Dilar” MCHJni ochdim. Bu yerda milliy va zamonaviy usuldagi kiyim-kechak tikamiz, o‘z brendimizni yaratdik. Mahsulotlarimiz ichki bozorga sotiladi, kelgusida eksport qilish rejalarimiz bor. Korxonada 10 dan ortiq doimiy, 30 dan ziyod mavsumiy ish o‘rni yaratganman. Ish jarayonida qiyinchiliklar bo‘lib turadi, ammo bular qonun-qoidalarni bilmaslik bilan bog‘liq. Sohani yaxshi tushungan, huquqiy asoslarini bilgan odamga hozir tadbirkorlik qilish u qadar mashaqqatli emas. Faqat halol, astoydil ishlash kerak. Fermerlikka kelsak, bu ham tadbirkorligimning bir qismi. Hali aytganimdek, biz dala ishlarida toblanib katta bo‘lganmiz. Shuning uchun dalada mehnat qilish qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ayniqsa, hozir agrar tarmoq tadbirkorlikning yaxshigina yo‘nalishiga aylangan davrda. Fermer o‘z yeriga ham, mahsulotiga ham, daromadiga ham o‘zi ega chiqyapti. Bu esa ishga bo‘lgan zavqni yanada oshiradi. Shuning uchunmi, 35 gektar yerimizning bir qarichini ham bo‘sh qoldirmaymiz. Uzum, limon, ko‘katlar yetishtirib, xalqimiz dasturxoniga taqdim qilyapmiz. Chorvachilik tarmog‘ini ham yo‘lga qo‘yganmiz, mol-hol, ot, tuya degandek. Bu yo‘nalishdagi ishlarni ham kengaytirib, go‘sht mahsulotlarini xorijga eksport qilish niyatim bor.

O‘tgan yillar davomida hayotimda qiyin kunlar, yo‘qotishlar ham bo‘ldi. Shunday vaqtlarda ishim menga kuch berib turdi. Ayol kishining bir kasbi, hunari bo‘lsa, sevimli sohasida mehnat qilsa, tushkunlikka tushib qolmaydi. Bugun tadbirkor xotin-qizlarga qarab turib, ularda hayotga bo‘lgan zavq, ishtiyoqni ko‘raman. Bari o‘zlariga qaragan, ko‘zlari chaqnab turibdi, bilim olib, o‘z ustida tinimsiz ishlayapti. Demak, ularning hayotida ma’no bor, turmushidan mamnun. Davlat tomonidan bo‘layotgan e’tibor, imtiyoz va qo‘llab-quvvatlov esa o‘zlariga ishonchni yanada oshiryapti. Ular, chindan, baxtli. Baxtli ayol esa nafaqat oilasi, balki atrofdagilarga ham o‘z ibrati bilan quvonch ulashadi, rag‘bat bera oladi.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

ASALARICHILIK

MING DARDGA DAVO, DAROMADGA DARMON

Nukuslik Dao‘ran Qurbaniyazov 30 yildan beri asalari boqish bilan shug‘ullanadi. Ayni paytda asal savdosini ham yo‘lga qo‘ygan. Qiziq tomoni, yo‘l bo‘yida sotuvga qo‘yilgan mahsulotni aksariyat hollarda xaridorlar sotuvchisiz ham oladi. Ya’ni xaridor asal to‘lovini shu yerdagi maxsus qutiga tashlab ketadi. O‘zim ham bunga bir necha marta guvoh bo‘lganman. “Nima uchun asalni ko‘chada qarovsiz qoldirib ketasiz?”, degan savolimga u “Odamlarga ishonaman, 30 yildan beri ushbu sohaning ichidaman. Ishlarim chiqib qolsa, telefon raqamimni qoldirib ketaman. Xaridorlar qo‘ng‘iroq qilib, savdolashadi va pulini qutiga solib ketadi”, deb javob berdi.

Tajribali tadbirkorning aytishicha, 50 quti asalaridan yiliga 2,5-3 tonna asal oladi. Undan har xil mahsulotlar ham tayyorlaydi. Endilikda Rossiyadan iqlim sharoitimizga mos asalarining yangi avlodlaridan olib kelmoqchi. Bugungi kunda bozorlarimizda bir kilo asal 60 mingdan 100 ming so‘mgacha sotilayotganini hisobga olsak, demak, asalari yetishtirish yaxshigina daromad manbayi ekani anglashiladi.

Aslida, Qurbaniyazovlar oilasi uchun asalarichilik avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan sulolaviy kasb. Dao‘ran bu ishni otasi Azat Qurbaniyazov va onasi Natalya Allayarovadan o‘rgangan bo‘lsa, o‘z navbatida, ular asalarichilik sir-asrorlarini tadbirkorning bobosi Sharipbay Qurbaniyazovdan o‘rganib, oilaviy tadbirkorlikni davom ettirgan.

Azat Qurbaniyazov otasining yonida 5 yoshidan boshlab ushbu soha sirlarini o‘zlashtirgan. Bugungi kunga kelib esa bu ishlarga, asosan, o‘g‘li Dao‘ran bosh-qosh. Lekin Azat aka hamma ishni o‘g‘liga topshirib, tomosha qilib o‘tiradiganlar xilidan emas. Har ishda farzandiga kamarbasta, maslahatchi. Shu bilan birga, turmush o‘rtog‘i Natalya bilan asalari zahri, suti, propolisi, gulchangidan har xil dori-darmon ham tayyorlaydi.

Keyingi yillarda yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, shu jumladan, sifatli asal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish bo‘yicha tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan, sohani jadal rivojlantirishga doir qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-iyundagi “Asalarichilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligi ekinlarini asalari bilan changlatishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorini ayni yo‘nalishdagi muhim hujjatlardan biri, deyish mumkin. Binobarin, hujjat bilan soha rivojiga xizmat qiluvchi 2023-2024-yillarda asalari oilalari sonini ko‘paytirish va asal yetishtirish hajmini oshirish, mazkur davrda asalarichilik subyektlari va mahalliy sharoitda yetishtiriladigan ona arilar sonini ko‘paytirishning prognoz ko‘rsatkichlari tasdiqlandi. Shuningdek, yurtimizning qator hududlarida Namangan va Farg‘ona viloyatlari tajribasi asosida asalarichilik sanoat markazlarini tashkil etish kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

Qarorga muvofiq, joriy yil Qoraqalpog‘istonda asalari oilalari soni 40 mingdan oshiriladi, shunga mos ravishda yetishtirilgan asal hajmi qariyb 1,5 ming tonnaga yetkaziladi. Keyingi yil esa bu boradagi ko‘rsatkichlar mos ravishda asalari oilalari soni bo‘yicha 48 ming 800, olinadigan mahsulot hajmi esa 1 ming 643 tonna etib belgilangan. Vaholanki, 2020-yilda hududda 28 ming asalari oilasi bo‘lib, ulardan 910 tonnadan ortiqroq asal olingan.

— Joriy yil asalarichilik yo‘nalishi bo‘yicha qiymati 3 milliard 365 million so‘mlik 47 loyiha amalga oshirilib, 234 ta yangi ish o‘rni tashkil qilinadi, — deydi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Asalarichilik uyushmasi raisi Erkin Rasulov. — Mahalliy sharoitda yetishtiriladigan zoti yaxshilangan ona arilar o‘tgan yili 25 mingta bo‘lgan bo‘lsa, joriy yilda bu ko‘rsatkichni 40 mingdan oshirmoqchimiz. Aholi xonadonlariga 11 ming 100 ta asalari oilasini yetkazib berish choralari ko‘rilmoqda. Shularning hisobiga joriy yilda 1 ming 470 tonna asal yetishtirishni maqsad qilganmiz (o‘tgan yili 1 ming 265 tonna). Shuningdek, asalari bilan shug‘ullanuvchilar sonini 1 ming 600 nafarga yetkazish reja qilingan. Umuman olganda, yil sayin asalga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu talabni nafaqat qoplash, balki eksport qilish imkoniyatlarini oshirish haqida o‘ylayapmiz. Zero, mamlakatimizda buning uchun yetarli sharoit yaratib berilmoqda.

Darhaqiqat, yurtimizda asalarichilikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu bir tomondan, yurtdoshlarimizning asal mahsulotlariga talabini qondirish, boshqa tomondan, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq. Chunki asalari oziq-ovqat zanjirining muhim qismi hisoblanadi va ekotizim muvozanatini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Ma’lumotlarga ko‘ra, ular barcha o‘simliklarning uchdan biridan ko‘prog‘ini changlatadi. Demak, asalarilarsiz meva-sabzavotlar, asal va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari to‘kinligini tasavvur qilish qiyin. Qolaversa, bu mitti hasharotlar atrof-muhitni asrash va salomatligimizni saqlashga yordam beradi. Shu bois, butun dunyoda asalarichilik tarmog‘i davlatlar qishloq xo‘jaligining muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham asalarichilikni rivojlantirish, shu orqali aholini doimiy daromad manbai bilan ta’minlash choralari ko‘rilmoqda.

Asalari boqib daromad ko‘rayotganlar Beruniy tumanida ham ko‘p. Tumanda asalarichilikka ixtisoslashgan 8 ta fermer xo‘jaligi mavjud, ular tomonidan bu yil 20 tonna asal olinishi kutilyapti. Umuman, tumanda joriy yil 71 tonna asal yetishtirish rejalashtirilgan bo‘lib, asosiy qismi aholi xonadonlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi “Chorva nasl” markazining Beruniy tumani bo‘yicha vakili Farhod Yangiboyevning ta’kidlashicha, fermer xo‘jaliklari va aholi o‘rtasida asalari boqish bo‘yicha tizim yo‘lga qo‘yilgan. Ya’ni ushbu yo‘nalishdagi fermerlar talabgor aholiga shartnoma asosida asalari oilalarini yetkazib beradi. Bu esa, o‘z navbatida, aholining qo‘shimcha daromad topishi va ko‘proq asal yetishtirishga xizmat qilmoqda.

Mutaxassislarning hisob-kitob qilishicha, bitta asalari oilasi uy sharoitida o‘rtacha 15-20 kilogrammgacha asal bera oladi. Agar asalari oilasi to‘g‘ri parvarishlansa, undan ham ko‘p mahsulot olish mumkin. Bular, albatta, ularni serasal o‘simliklar joylashgan joyga ko‘chirish va asalari zotiga bog‘liq.

Asalarichilik Nukus tumanida ham yaxshi rivojlangan.

— 2017-yildan buyon asal mahsulotlarini tayyorlash bilan shug‘ullanamiz, — deydi “Karaterek asalchi” fermer xo‘jaligi rahbari Darmenbay Yusupov. — Har yili 2-2,5 tonna asal olamiz. Mahsulotlarimizni sotish uchun “Aqmang‘it” dehqon bozoridan alohida joy ajratilgan. Bu yil bahor mavsumi qulay keldi. Daromadimiz ham shunga yarasha bo‘lyapti.

Yana bir gap, bu fermer ayni yo‘nalishdagi boshqa tadbirkorlarga ham yaqindan yordam berib keladi. Xususan, asalarichilik uchun zarur jihozlarni eng qulay shartlarda yetkazib beradi.

Kegeyli tumanidagi “Aqtuba” ovul fuqarolar yig‘inida yashovchi Jumabay Nurmanov bundan 7-8 yil oldin 2 quti asalari boqishni boshlagan edi. Bugungi kunga kelib, uning asalarilari qutisi 50 tadan oshib ketdi.

— Bu sohaga qiziqishimga bir ko‘rsatuv sabab bo‘lgan. Nimaga men asalari boqa olmayman, harakat qilib ko‘rsam, uddalasam kerak, degan tavakkalchilik bilan boshlaganman, — deydi u. — Hozirgi vaqtda 17 kishini doimiy ish bilan ta’minladim. Asalari boqishni istaganlarga qo‘limdan kelgancha yordam beraman.

Bugungi kunda asalarichilik tarmog‘ini tubdan takomillashtirish, xo‘jaliklar faoliyati samaradorligini oshirish, asal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va turini yanada ko‘paytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. To‘g‘ri, hech bir soha kamchilikdan xoli bo‘lmaganidek, ushbu yo‘nalishda ham e’tibor qaratilishi lozim jihatlar mavjud. Masalan, asalni qayta ishlash sanoat darajasida emas. Bu orqali esa qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish, yana ko‘plab yurtdoshlarimiz bandligini ta’minlash, eksport imkoniyatlarini oshirish mumkin. E’tiborli jihati, avvalo, kamchiliklar avvalgidek xaspo‘shlanmayapti. Qolaversa, ma’lum vaqt talab etiladigan sohani sanoatlashtirish uchun bugun zarur choralar ko‘rilmoqda. Fikrimizcha, asalni qayta ishlash bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, sohadagi ilg‘or tajribalarni tatbiq etish orqali mamlakatimizda ushbu sohani yanada rivojlantirishga erishiladi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

TARAQQIYOT YO‘LI

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH

ta’lim tizimini isloh qilishdan boshlanadi

Ta’lim-tarbiya va ijtimoiy islohotlar ajralmas uzviy bog‘liqlikdagi masala hamda uni ta’minlash inson kapitalini rivojlantirishning muhim unsuridir. Bazaviy to‘lov-kontrakt asosida davlat oliy ta’lim muassasasiga qabul qilingan, ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollarning to‘lov-kontrakt pullarini to‘lab berish joriy etildi.

2018-2023-yillarda oliy ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda ilm-fanning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha zamonaviy o‘quv-ilmiy laboratoriyalar bilan jihozlash maqsadida

Hotamjon QOBULOV,
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Boshlanishi 1-betda

Xalqimizda “Ta’lim-tarbiya beshikdan boshlanadi”, degan hikmat bor. Faqat ma’rifat insonni kamolotga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli yangi O‘zbekistonda bola tug‘ilganidan boshlab uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratishga harakat qilinmoqda.

Mamlakatimizda bir-biri bilan chambarchas bog‘langan maktabgacha va maktab, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimi, ilmiy tadqiqot muassasalarini rivojlantirish bo‘yicha salmoqli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Birlamchi va eng muhim bo‘g‘in

Sog‘lom genofondni, yetuk kadrlarni tarbiyalash, avvalo, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi. Biroq bu tizim rivojlanishdan ortda qolgan edi. Mustaqillik qo‘lga kiritilganidan to 2017-yilgacha davr oralig‘ida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta’lim muassasalari 45 foiz kamaygan. Oqibatda maktabgacha yoshdagi bolalarning 30 foizdan kamrog‘i bog‘chalarga qamrab olingan, xolos. Bu ko‘rsatkich Daniyada 99 foiz, Yaponiyada 97 foiz, Janubiy Koreyada 95 foizni tashkil etadi.

Bugun esa maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, yuqori saviyaga olib chiqish borasida boshlangan islohotlar jadallashmoqda. Jumladan, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi 2017-yildagiga nisbatan 2,5 barobar oshib, 71,8 foizga yetkazildi. Hozir maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 2 milliondan ortiq bola tarbiyalanmoqda.

Ta’lim berish uchun zarur moddiy-texnik bazani mustahkamlash maqsadida oxirgi yetti yilda 5 ming 137 ta maktabda qurilish-ta’mirlash ishlari bajarildi. Xususiy sektor hisobiga nodavlat umumta’lim tashkilotlari soni 364 taga yetib, 2017-yildan 2021-yilga qadar deyarli 6 barobar oshdi. Natijada 643 ming yangi o‘quvchi o‘rni yaratildi. Maktablarda xalqaro moliya institutlari grantlari, investitsiya hamda davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan 6 ming 251 ta zamonaviy kompyuter sinfi (95 ming dona) tashkil qilindi.

Bilim berishda ta’lim sifatini ta’minlash bahssiz masaladir. Yangi O‘zbekiston poydevorining mustahqamligi bevosita unga bog‘liq. Shuning uchun sifatli ta’lim va bilim berishning barcha jihatini ta’minlash doimiy kun tartibida bo‘lishi zarur. Albatta, sifatli ta’limni yuqori bilim va malakaga ega pedagoglar ta’minlaydi. Mamlakatimizda pedagog va xodimlar salohiyatini oshirish borasida ham qator ishlar qilinmoqda. Ta’lim olish tamoyili asosida yangi — “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi orqali malaka oshirish tizimi yaratilgan. Unda 341 ming o‘qituvchi malaka oshirdi. Natijada 278 ming pedagog attestatsiyadan o‘tkazilib, toifaga ega o‘qituvchilar ulushi 43,8 foizdan 64,8 foizga oshdi.

Shu bilan birga, jamiyatda o‘qituvchilarning mavqei va obro‘sini ko‘tarish borasida ham salmoqli ishlar qilinmoqda. Ta’lim sohasi xodimlarini majburiy mehnatga jalb etishga barham berilib, ko‘p ming sonli pedagog-xodimlar huquqlari himoya qilindi. Maktab ta’limi sohasidagi islohotlar samarasi o‘laroq, O‘zbekiston xalqaro ta’lim reytingi va indekslarida mavqeini yaxshilab kelmoqda. Xususan, “Inson kamoloti indeksi” tarkibidagi ta’lim indeksida 2015-yildagi 81-o‘rindan 2021-yilda 71-o‘ringa, Global innovatsion indeksda 2015-yildagi 122-o‘rindan 2021-yilda 82-o‘ringa, Global innovatsion indeksning tarkibidagi inson kapitali yo‘nalishi bo‘yicha 2015-yildagi 76-o‘rindan 2021-yilda 65-o‘ringa ko‘tarildi.

Uzluksiz ta’lim tizimi

Professional ta’lim tizimini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb etish maqsadida qator hujjatlar qabul qilindi. Ular asosida 2020/2021-o‘quv yilidan boshlab Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg‘unlashgan yangi boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus,

professional ta’lim tizimiga asos solindi. Natijada kasb-hunar maktablari, kollejlar, texnikumlar tashkil etildi.

Ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan, kadrlarga real ehtiyojni inobatga olgan holda, barcha soha va tarmoqlar uchun zarur malakali mutaxassislar tayyorlash hamda jamiyatning kasb va mutaxassisliklarga talabini qondirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlash, mahalliy va xalqaro ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish professional ta’limning asosiy maqsadidir. Bu sa’y-harakatlar mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirish, ish o‘rinlari doimiyligini ta’minlash, mehnat bozoriga tajribali kadrlar yetkazib berishga xizmat qiladi.

Professional ta’lim muassasalari hududlarning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik sharoitlari, mehnat bozorining tegishli soha mutaxassislariga talabini, manfaatdor vazirlik va idoralarning kadrlarga ehtiyoji hamda oliy ta’lim tizimi bilan integratsiyalashgan ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashni hisobga olgan holda faoliyat yuritadi.

Avvaliga professional ta’lim muassasalarida faqat kunduzgi shaklda o‘qitilgan bo‘lsa, 2021-yildan boshlab kasb-hunarga o‘qitish ko‘lami va yoshlarga ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish uchun kechki, sirtqi va dual ta’lim shakllari yo‘lga qo‘yildi. 2021/2022-o‘quv yilidan 63 ta professional ta’lim muassasasida Germaniya xalqaro moliya institutlari (Jahon banki va Islom taraqqiyot banki) ishtirokida umumiy qiymati 70,3 million dollarlik 2 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi.

Shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili

Ta’lim inson shaxsini rivojlantirish uchun asosiy ehtiyojlar qatoriga kiradi va har bir insonning ajralmas huquqidir. Sifatli ta’lim butun jamiyat va uning a’zolariga mamlakatning iqtisodiy boyliklaridan foydalanish, mehnat bozorida katta mavqega ega bo‘lish va yuqori daromad olish imkonini beradi.

Ta’lim sifatini tashqi ta’minlash bo‘yicha 30 kishilik ekspertlar guruhi shakllantirildi va xalqaro darajada akkreditatsiyadan o‘tkazuvchi mutaxassis sifatida nufuzli xorijiy ekspertlar tomonidan ularning malakasi oshirildi.

tajribasi asosida dual ta’lim shakli joriy etildi. Uni samarali tashkil qilish maqsadida korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik o‘rnatildi, ishlab chiqarish korxonalari tomonidan o‘quvchilarga malakali mutaxassislar biriktirildi.

Hozir yurtimizdagi 704 ta professional ta’lim muassasasida 375 mingdan ortiq o‘quvchi kasb-hunarga o‘qitilmoqda. Ularni 120 ta kasb, jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarga mo‘ljallangan qisqa muddatli 20 ta kursda o‘qitish joriy etildi.

Yoshlarni kasb-hunarga, tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirish borasida barcha ta’lim muassasalarida biznes asoslari, Germaniyaning biznes o‘yinlarga asoslangan yangi metodikasi orqali o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. 2023-yilda Germaniya metodikasi asosida 545 o‘qituvchining tadbirkorlik ko‘nikmalari bo‘yicha malakasi oshirildi.

Bugun taraqqiyotning tamal toshi, mamlakatni qudratli, millatni buyuk eta oladigan qudratli kuch bo‘lgan ilm-fan, ta’lim-tarbiyaga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jahonning qator yetakchi davlatlarida ta’limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilangani ham bejiz emas. Zero, yurtning ertangi kuni, ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritilgan yutuqlarga bevosita bog‘liq. Bu borada oliy ta’lim tizimining o‘rni beqiyos.

Oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi dasturulamal vazifasini bajarmoqda.

Oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoni to‘liq kredit-modul tizimiga o‘tkazildi. 41 ta oliygohga akademik va moliyaviy mustaqillik berilib, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, kontrakt asosidagi qabul parametrlarini belgilashda mustaqil hal etish imkoniyati yaratildi. Har bir oliy ta’lim muassasasi tomonidan o‘quv reja va dasturlarini mustaqil ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi joriy etildi.

Barcha oliy va professional ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun imtiyozli ta’lim kreditlari ajratilishining yangi tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bunda qizlar uchun ta’lim kreditlari foizsiz belgilanganini alohida ta’kidlash lozim.

So‘nggi olti yilda oliy ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorlik va grant dasturlari doirasida 8 ming 636 professor-o‘qituvchi xorijiy oliy ta’lim hamda ilmiy tadqiqot muassasalariga malaka oshirish va tajriba almashish uchun yuborildi. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish maqsadida xorijlik 7 ming 385 mutaxassis o‘quv jarayoniga jalb qilindi.

Inson kapitalining shakllanishida nafaqat ta’lim-tarbiya, balki ilm-fanni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ilm-fan sohasiga alohida e’tibor qaratish, uning vakillarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish davlat va hukumat oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. Innovatsiya va ilm-fan sohalariga davlat byudjetidan ajratiladigan yillik mablag‘ hajmi 3 baravar hamda loyihalarni moliyalashtirish hajmi 3,5 baravar oshirildi, xususan, mablag‘larning 40 foizi zaruriy asbob-uskunalar, reagent va materiallar xaridiga yo‘naltirildi.

Ilm-fan va ilmiy faoliyatni boshqarish tizimi takomillashtirildi, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshlik darajasi va innovatsion jihatdan taraqqiy etganlikni belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirishga asosiy urg‘u berildi. Qishloq xo‘jaligi, energetika, qurilish, ta’lim, hamda sog‘liqni saqlash sohalarida texnologik taraqqiyot va innovatsiyalarni joriy etishni ta’minlash, inson kapitalini rivojlantirish maqsadida oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi qamrov kengaytirildi.

Zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson kapitaliga bog‘liq. Shuning uchun alohida mintaqa darajasida ham, davlat darajasida ham inson resurslarini rivojlantirish va inson kapitaliga muvozanatli investitsiyalar sohasida izchil siyosat zarur. Bu yo‘nalishda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmalari yaratildi. Xususan, respublika hududida 19 ta yangi innovatsion infratuzilma tashkil etildi.

Hududlarda yoshlarning tahliliy fikrlash, ularni ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatga keng jalb etish, iqtidorli, tashabbuskor yoshlarga intellektual salohiyatini namoyon qilishi va ijtimoiy moslashuvi uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida respublikaning 6 ta viloyatida Yoshlar texnoparki faoliyati to‘liq yo‘lga qo‘yildi.

Inson kapitalini rivojlantirish vazifasi bugungi kunda, birinchi navbatda, inson salohiyatini kapitallashtirish tarmoqlari hisoblanuvchi bir qator zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlar — ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, fanni modernizatsiya qilish davlatning asosiy vazifasi sifatida belgilanishi kerak.

NUQTAYI NAZAR

ILMIY-PEDAGOG KADRLAR SALOHIYATI

MAMLAKAT TARAQQIYOTIDA QANDAN O‘RIN TUTADI?

Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash hozir dolzarb masalalardan. Shu bois, ilmiy salohiyat jahon reytingida OTMlar 1000 taligi qatoridan o‘rin egallashning talablaridan biri etib belgilangan. Rivojlangan mamlakatlarning xalqaro reytingda yuqori pog‘onalardan o‘rin egallagan ko‘pgina oliy ta’lim muassasalari ilmiy salohiyatini tahlil etsak, ularda ushbu ko‘rsatkich 60 foizdan yuqoriligini ko‘ramiz. Bunga AQSH, Germaniya, Koreya Respublikasi, Xitoy, Rossiya kabi ko‘plab davlatlarning oliy ta’lim muassasalarini misol keltirish mumkin.

Barno ABDULLAYEVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti prorektori, pedagogika fanlari doktori, professor

Yangi O‘zbekiston sharoitida ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash borasida ilmiy tadqiqotlarning ustuvor jihatlari qator maqsadli faoliyat vektorlarida aniq ko‘rinadi. Tarbiya va o‘qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirgan, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash shular jumlasiga kiradi. Qolaversa, pedagogik ta’lim yo‘nalishlari hamda mutaxassisliklar bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o‘quv-me’yoriy va ta’lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash orqali o‘qitish sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish zarurati mavjud. Bu jarayonda ilmiy pedagog kadrlar buyurtmachilarining ehtiyoj va talablarini muntazam o‘rganib borish, ular bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan istiqbolli rejalarini belgilash va amalga oshirish lozim.

Mamlakatimizda ilmiy pedagog kadrlar tayyorlashda hudud rivojlanishining o‘ziga xosligini e’tiborga olish tendensiyasi shakllandi. 2023-yilda qator oliy ta’lim muassasalari pedagogika ta’lim yo‘nalishlari, magistratura mutaxassisliklari va institutlari negizida OTMlar tashkil etildi. O‘zbekiston — Finlyandiya pedagogika instituti hamda Urganch, Namangan, Guliston, Andijon, Buxoro, Termiz, Shahrisabz davlat pedagogika institutlari, Chirchiq va Jizzax davlat pedagogika universitetlari buning amaliy misoli. Mazkur holat hududlarda ilmiy pedagog kadrlar tayyorlashning mahalliy xususiyatga ega, aniq maqsadga yo‘naltirilgan infratuzilmasini yaratishga start berilganini ko‘rsatib turibdi. Ushbu oliy ta’lim muassasalarini yosh va ilmiy salohiyatli kadrlar bilan ta’minlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash imkoniyati mavjud.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi eng muhim qadamlardan biri ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini raqamlashtirishdir. Binobarin, ilmiy daraja va unvonlar bo‘yicha attestatsiya ishlari, jumladan, ekspertiza jarayoni elektron amalga oshirilishi, oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalari, ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar va OAK o‘rtasidagi barcha hujjat korporativ elektron hujjat aylanish kompleks-tahliliy axborot tizimi asosida bajarilishi, attestatsiyani uzluksiz va onlayn shaklda o‘tkazishning ilmiy tashkiliy va dasturiy bazasi yaratildi.

Ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish holatini Toshkent davlat pedagogika universiteti misolida tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bunda, eng avvalo, kadrlar tayyorlashning uzilmas va bir-birini to‘ldiruvchi “ilmiy xalqa”si yaratilmoqda. Xususan, ilmiy tadqiqotning “bakalavr — magistr — tayanch doktorant — doktorant” uzviy vektorli tuzilmasini shakllantirishga e’tibor berilgan. Bu jarayonda iqtidorli talabalarni maqsadli tayyorlash, magistrlik dissertatsiyasi ilmiy natijadorligini oshirish, doktorlik dissertatsiyalari amaliy qiymati va tijoriylashtirishga yo‘naltirilganini ta’minlashga bosh mezon sifatida qaraladi. Universitetda amaliy va innovatsion tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash orqali samaradorligini oshirish, ilmiy ishlanmalar transferini samarali tashkil etish orqali pedagogik ta’limning dolzarb muammolarini hal qilishga qaratilgan fundamental va amaliy izlanishlar ko‘lamini kengaytirishga erishish hayotiy prinsipga aylanib bormoqda.

Toshkent davlat pedagogika universitetini rivojlantirish strategiyasi va maqsadli ko‘rsatkichlarining aniq belgilangani hamda ilmiy jamoaning potensialidan unumli foydalanish natijasida oxirgi bir yilda ilmiy salohiyat 38 foizdan 52 foizga oshirildi. Oliy ta’lim muassasasida fan doktorlari soni 62, fan nomzodlari esa 386 nafarga yetdi. Natijada universitet yurtimizdagi 30 ta oliy ta’lim muassasasi qatorida barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda OTMlar ta’sirini baholovchi THE Impact Rankings xalqaro reytingidan joy oldi. Eng muhimi, 2023-yil uchun QS Osiyo universitetlar reytingida Toshkent davlat pedagogika universiteti yetakchi 1000 talikdan o‘rin egalladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ilm-fan rivojlanishini rag‘batlantirish tizimi shakllantirildi. Eng avvalo, ilm-fan sohasida boshqaruv tizimi takomillashtirilib, ilmiy faoliyatning me’yoriy-huquqiy bazasi mustahkamlandi. Ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini diversifikatsiyalash hamda yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish va yutuqlarini rag‘batlantirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. O‘z navbatida, ilm-fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish, ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish borasidagi ishlar natijasida fuqarolarning o‘zini o‘zi rivojlantirish va ilmiy-innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishdan manfaatdorligi oshdi. Mana shunday shijoat va intilishlar asnosida 2030-yilga borib, O‘zbekistonni Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahonning 50 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kiritish maqsadi belgilandi.

Shuningdek, kadrlar salohiyatini oshirish, ilm-fan va ta’lim sohasida yuqori malakali kadrlarning bilim va tajribasini amalda qo‘llashni moliyaviy rag‘batlantirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) (yoki xorijiy mamlakatlarda ularga tenglashtirilgan darajalar) ilmiy darajasiga ega shaxslar uchun lavozim maoshining 30 foizigacha, fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga ega shaxslar uchun 60 foizigacha qo‘shimcha haq to‘lash tizimi joriy etildi.

Ilm — baxtga yetaklovchi yagona to‘g‘ri yo‘l. Yurtimizda yaratilayotgan shart-sharoitlarning qadriga yetib, kelajakda el dardiga yaraydigan, xalq manfaatlarini o‘ylaydigan barkamol insonlarni tarbiyalash eng asosiy burchimiz. Ma’rifatli bo‘lib, jaholatga qarshi kurashishimiz ertangi kunimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining 80 yilligiga

Arxeologik EKSPEDITSIYALARNING ilk karvoni

Tarixda shunday olimlar borki, ularning ijod yo‘lidagi hayot mezonlari shogirdlari va farzandlari uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Bag‘rikenglik, poklik, kelajakka befarq bo‘lmaslik, ilm-fanda halollik va xolislik, muloqotda mulohazalilik, o‘z nuqtayi nazarini bayon etishda qat’iyatlilik kabi fazilatlar sohibi bo‘lgan bunday insonlar dunyoni tark etganlarida ham el og‘zidan tushmaydi.

AKADEMIK YAHYO G‘ULOMOV SARDORLIGIDA YO‘LGA CHIQQAN EDI



Ahmadali ASQAROV,
Nizomiy nomidagi TDPU professori, akademik

XX asrda yashab ijod etgan ana shunday ulug‘ siymolardan biri, hayotda va ilmu fanda pok inson, tarixchi-arxeolog olim, ustoz Yahyo G‘ulomovdir.

Akademik, asosan, O‘zbekiston FA Tarix va arxeologiya institutida faoliyat yuritgani holda, uzoq yillar davomida Nizomiy nomidagi TDPI (hozirda universitet)da tarix fakulteti talabalariga O‘zbekistonning qadimgi tarixi va arxeologiyasidan dars berish bilan birga, ushbu oliy ta’lim dargohi tadqiqotchilarining ilmiy ishlariga rahbarlik qildi.

Yahyo G‘ulomov 1908-yil 1-mayda Toshkent shahrida ziyoli oilasida tug‘ilgan. Xo‘ja Ahror madrasasi mudarrisining assistenti vazifasida ishlovchi otasi G‘ulomxon maxzum va maktabdor onasi Soraxon otin tarbiyasini olgan. “Olti farzand orasida akam Yahyoxon o‘tkir zehni va iqtidori bilan yoshligidanoq ko‘zga tashlanib turar edi”, deb eslaydi ukasi professor Saidahmad G‘ulomov. O‘qishga chanqoq Yahyo G‘ulomov 7-8 yoshidayoq volidasi Soraxon otindan olgan saboqlari asosida arabcha va forscha kitoblarni bemalol o‘qiy olgan. O‘rta ta’limni esa 1918-yilda Toshkent shahrida ochilgan “Namuna” maktab-internatida o‘zlashtirdi.

Toshkentda maktab tahsilini yakunlagach, o‘qishni Samarqand shahridagi Davlat pedagogika akademiyasida davom ettiradi. 1927-1930-yillarda akademiyaning ijtimoiy va iqtisodiy bo‘limida o‘qidi. U dorilfununda o‘sha davrning mashhur olimlari Bo‘lat Soliyev, Muso Saidjonov va Vasiliy Vyatkinlar qo‘lida ta’lim olganini eslaydi.

Yahyo G‘ulomovni arxeologiya faniga yetaklagan birinchi ustozi V.Vyatkin bo‘lgan. U rus millatiga mansub bo‘lishiga qaramay, o‘zbek va tojik-fors tillarini yaxshi bilgan. Arab va fors yozma manbalarini, vaqf va xo‘jalik xujjatlarini o‘qir, ularni ilmiy tahlil qilishda zukko olim edi. *“Musulmon sharqi tarixi” bo‘yicha V.Vyatkindan eshitgan birinchi ma’ruzadayoq mening ilgarigi qarashlarim ostin-ustun bo‘lib ketdi. Chunki uning bilganlari oldida mening o‘zimga bo‘lgan e’timodim puchdek ko‘rina boshladi. U X asrdagi Muhammad Tabariy, Muhammad Narshaxiy va keyingi asrlarda yashagan Ibn Asir, Juvayniy qalamiga mansub tarixiy manbalarni shunday xarakterlab berdiki, ular qarshisida mening o‘qib yurgan kitoblarim hech narsa bo‘lib qoldi”*, deb yozadi Yahyo G‘ulomov o‘z ustozi haqida.

Uning xotira daftari bilan tanishar ekanmiz, arxeologiya faniga bo‘lgan qiziqishni ilk bor uyg‘otgan inson V.Vyatkin bilan bog‘liq e’tiborga molik voqealar ko‘pligiga guvoh bo‘lamiz. Bo‘lajak shogirdining ilmga astoydil intilishini sezgan olim uni arxeolog qilish maqsadida o‘zi bilan dala ishlariga olib chiqa boshlaydi. Hatto akademiyadagi maxsus arxeologiya kabineti mudiri arxeolog I.Cheylitkoga Yahyo G‘ulomovni biriktirib qo‘yadi.

Qahramonimiz talabalik davrining oxirgi yilidayoq O‘zbekiston Xalq Komissarlari Soveti qoshidagi “O‘zbek ilmiy-tadqiqot instituti”ning aspiranti bo‘lgan. U dastlab Samarqandda o‘z ilmiy ishini davom ettirib, 1931-yilda Toshkentga qaytadi va Toshkent pedagogika texnikumida o‘qituvchilik qila boshlaydi.

Ustozning biz “Qori aka” deb murojaat etadigan qaynag‘asi bo‘lar edi. Juda xushchaqchaq, hazilkash, ammo o‘z davrining ustamon tadbirkorlaridan sanalgan. Qori aka ustozning hovlisiga tez-tez kelib turardi. Ustoz ishdan hali qaytmagan chog‘larda Qori aka mening musofirxonamga “Qani, yigitcha, ishlar qanday ketyapti?” deb kirib kelardi. Ana shunday uchrashuvlardan birida “Buni hech kimga ayta ko‘rmang, zamon qaltis”, deb ustoz o‘tmish hayotidan biz bilmagan bir faktni aytib berdi. Ustoz Toshkentda pedagogika texnikumida faol ishlab yurgan kezlarda uning faoliyati shubha ostiga olinib, NKPBga yolg‘on ma’lumot yetkazilgan. Bundan xabar topgan yosh pedagog Yahyoxon akalari Said Odilxon va ukalari Saidahmadlar bilan birgalikda ma’lum vaqt Surxondaryo viloyatining tog‘li qishloqlaridan biri bo‘lgan Sinada yashirinib yashashga majbur bo‘lgan...

1933-yilda O‘zbekiston Xalq Komissarlari Soveti qoshida respublika tarixiy yodgorliklarini saqlash va ilmiy o‘rganish komiteti (Uzkomstaris) tashkil etilib, Yahyo G‘ulomov shu komitetga ilmiy xodim, so‘ng ilmiy kotib sifatida ishga olinadi. Bu qo‘mita me’moriy yodgorliklarni saqlash bilan bir qatorda, arxeologik yodgorliklarni ham o‘rganishga katta etibor beradi, mintaqaviy arxeologik ekspeditsiyalar uyushtiradi.

Izlanuvchan olim 1933-yilda Termiz, 1934-yilda Zarafshon ekspeditsiyalarida qatnashadi. Ayniqsa, A.Yakubovskiy rahbarligidagi Zarafshon ekspeditsiyasi ishlarida faol ishtirok etib, Qiziltepa, Shahri Vayron, Abumuslimtepa, Xazora, Dobusiya kabi qadimgi shahar xarobalarini va Buxoro vohasini o‘rab olgan Kampir devor qoldiqlarini o‘rganishda salmoqli arxeologik tajriba orttiradi.

Yahyo G‘ulomov mustaqil arxeologik tadqiqotlarini ilk bor 1936-yilda Xorazmda havaskor arxeolog do‘sti Turdi Mirg‘iyosov bilan birgalikda boshlaydi. “O‘sha 1936-yilning yoz kunlaridan birida Amudaryo qirg‘oqlarida qadimgi qal’alarni tekshirib, qayiqda suzib borayotgan edim, afg‘on shamoli tufayli daryo suvi ko‘tarilib, kuchli to‘lqin paydo bo‘ldi, — deb hikoya qilgan edi ustoz. — Daryoda suzib borayotgan qayiq goh ko‘tarilib, goh to‘lqin tepasiga minib olar, so‘ng tog‘dan dumalatilgan xarsang toshdek pastga munkib ketar, ba’zan to‘lqin zarbidan qayiq goh chap, goh o‘ng tomonga yonboshlab qolar, yana to‘lqinga urilib tiklanardi... To‘lqin ikki yosh qayiqchi yigitni ag‘darib, o‘zi bilan olib ketdi. Hayqirib oqayotgan suv qayiqni toshli tik qirg‘oqqa shiddat bilan olib borib, qoyaga o‘tkazib qo‘ydi. Qirg‘oqdan qo‘zg‘alish uchun qo‘limizda na eshkak, na tayoq bor edi. Falokatni ko‘rib, o‘zini yuqotib qo‘ygan keksa darg‘a qayiq o‘rtasida tiz cho‘kkan holda ikki qo‘lini yuqoriga ko‘tarib, daryoda g‘arq bo‘lib ketayotgan qayiqchilardan ko‘zini uzolmay, jon holatda “Xubbi, xubbi, yo xubbi! O‘zing madad ber!” — deb takrorlardi. Keksa qayiqchining baland ovozda daryoni tinchlanishga undashi va halokatdan qutqarishni so‘ragan yolvorish nidosi mendagi qo‘rqinchni yo‘qotgan edi. Men darg‘aga boqib va uning og‘zidan chiqayotgan “xubbi” so‘zini eshitib hayratda edim. Chunki bu so‘z islom dinigacha qadimgi Turon va Eronda keng tarqalgan zardushtiylik dinining suv xudosi “Xubbi” va unga iltijo qilib, undan madad so‘rashning o‘zginasi, fan uchun qimmatli etnografik ma’lumot edi”.

Boshga xavf-xatar tushgan damlarda ham fan to‘g‘risida o‘ylashni, avvalo, fidoyilik, qolaversa, jasorat deb baholash mumkin. Yahyo G‘ulomov ilk bor mustaqil ravishda qadimgi Xorazm vohasining Pilqal’a, Norinjon, Guldursin kabi yodgorliklarini o‘rganar ekan, ularni bunyod etgan ajdodlar xo‘jaligi asosida sug‘orma dehqonchilik madaniyati yotganini, shuningdek, qadimgi Xorazm tarixini o‘rganishda uning xo‘jalik asosi bo‘lgan sug‘orish tarixi, kelib chiqish ildizlari va rivojlanish bosqichlarini o‘rganish tarix va arxeologiyaning dolzarb muammosi ekanini tushunib yetadi.

Ekspeditsiyaning dastlabki ilmiy natijalari fidoyi olimning ijodiy hayotida keskin burilish yasaydi. U arxeolog bo‘lish oson kechmasligini, ammo bu fan bilan chindan shug‘ullanmoqchi bo‘lganlar izlanishlar jarayonida uchraydigan har qanday qiyinchiliklarga bardosh bera olgandagina maqsadga erishish mumkinligini o‘z hayoti misolida isbotladi.

1937-yil kuzida SSSR Fanlar akademiyasi qoshida S.Tolstov tashabbusi va rahbarligida Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tashkil etiladi. Bu ekspeditsiyaga O‘zbekiston Fanlar komitetidan Yahyo G‘ulomov jalb qilindi. Ekspeditsiya o‘z ishini VII-VIII asrlarga tegishli Teshikqal’ada boshladi.

U Teshikqal’a qazishmalarida faol ishtirok etish bilan birga, qal’a atrofida olib borilgan qidiruv ishlarida ham qatnashishga ulgurardi. Qadimgi ko‘l va soy yoqalaridagi qumlar ustida sochilib yotgan tosh, jez, mis va temir qurollarni ko‘rganda, qadimgi Xorazmning o‘tmishi turli davr moddiy madaniyat yodgorliklariga nihoyatda boyligini anglab, bu o‘lka tarixi bilan shug‘ullanishga qattiq bel bog‘laydi. Do‘sti S.Tolstov bilan maslahatlashib, kelajakdagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishini belgilaydi. Bu Xorazmning sug‘orilish tarixi edi.

Yahyo G‘ulomov “Uzkomstaris” xodimi sifatida ishlab yurgan kezlarda Xiva shahri me’morchilik san’ati bo‘yicha 60 dan ortiq obida nomlari, ularning qurilgan yillari, har biridagi hujralar soni va vazifasi, ularga ajratilgan vaqf yerlarining miqdorigacha yozma manbalar asosida aniqlik kiritib, keng ilmiy tadqiqot olib borgan. Ana shu izlanishlarning natijasi sifatida 1941-yilda olimning “Xiva shahri obidalari” nomli ilmiy asari chop etiladi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Toshkentga evakuatsiya qilingan bir guruh olimlar orasida o‘sha davr ijtimoiy-gumanitar fanlari darg‘alari B.Grekov, V.Struve, A.Yakubovskiy, K.Trever, S.Tolstov kabi olimlar yashash va ilmiy ijod bilan shug‘ullanish uchun Toshkentga kelgan. O‘sha kezlardayoq o‘zbek arxeologi sifatida e’tiborga tushgan Yahyo G‘ulomov Usmon ota Yusupovning maxsus topshirig‘iga ko‘ra, ular bilan ilmiy va tashkiliy masalalarda bog‘langan edi. Ustozning “Xiva shahri obidalari” nomli ilmiy asari bilan tanish bo‘lgan markaz olimlari ushbu asarni nomzodlik dissertatsiyasi sifatida himoyaga tavsiya etish mumkinligini maslahat beradi. Nihoyat, birinchi o‘zbek arxeologi sifatida 1943-yilda Yahyo G‘ulomov “Xiva va uning obidalari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Ustozning tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi sohibi bo‘lishi uni fanda yanada katta izlanishlar olib borishga undaydi. Endi ustozning butun fikri-yodi Xorazmning sug‘orilish tarixi ustida izlanishlar olib borishga qaratilgan edi.

1943-yil noyabr oyida Toshkentda Respublika Fanlar akademiyasi tashkil etiladi. Olimlar oldiga O‘zbekistonda ham har sohada fundamental fan bilan shug‘ullanish masalasi qo‘yiladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida akademiklardan B.Grekov va V.Struve ko‘p jildli “O‘zbekiston xalqlari tarixi”ni yaratish tashabbuskorlari bo‘lib chiqadi. Bu ishga markazdan kelgan yirik olimlar bilan birga, mahalliy tarixchilardan A.Semyonov, Yahyo G‘ulomov, V.Shishkin, R.Nabiyevlar jalb etiladi. Ishni yaratish bilan bog‘liq ilmiy-tashkiliy ishlar yosh arxeolog olim Yahyo G‘ulomovga topshiriladi. Ko‘p jildli “O‘zbekiston xalqlari tarixi” yakuniga yetmay, urush tugab, asar mualliflarining asosini tashkil etgan markaz olimlari kelgan joylariga qaytadi. Respublika hukumati Yahyo G‘ulomov zimmasiga ushbu ishni yakunlashni yuklaydi. Masalaning tub mohiyatini to‘g‘ri tushungan markaz olimlari uni SSSR FA Moddiy madaniyat (arxeologiya) institutining doktoranti etib rasman hujjatlashtiradi. Olim ushbu ikki tomlik asar yakun topib, chop etilmaguncha Toshkent — Moskva — Leningrad (Sankt-Peterburg) oralig‘ida qatnab, mualliflar bilan bevosita doimiy aloqada bo‘ladi, asarning tayyor bo‘lgan har bir bobi muhokamasida faol ishtirok etadi. Mana shu yo‘sinda O‘zbekiston tarixining ikki jildlik dastlabki nashri 1950-yilda dunyoga keldi. Ustozning ta’kidlashicha, “O‘zbekiston xalqlari tarixi”ning yaratilish jarayoni, ayniqsa, bir necha soatlab davom etadigan yirik olimlar davrasidagi bahslar Yahyo G‘ulomov uchun katta maktab bo‘lgan.

Shu davr ichida ustoz yana bir ulkan ishni yakunladi. Urushdan keyingi davrda har yili olti oylab qadimgi Xorazmda dala ilmiy izlanishlarini olib bordi. Xorazmning sug‘orilish tarixiga oid arxeologik, etnografik, folklor, etnogeografik, etnotoponim va gidrotoponim materiallarini to‘plab, ularni ilmiy tahlildan o‘tkazdi, davlat arxivlarida mavzuga doir hujjatlarni o‘rgandi. Markaziy kutubxonalarda ilmiy adabiyotlar ustida ishlab, to‘plagan barcha materiallarini tizimga soldi. 1949-yilda “Xorazmning qadimgi zamonlardan hozirgi kunlargacha sug‘orilish tarixi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yakunladi va uni 1950-yili himoya qilib, Toshkentga qaytadi.

Doktorlik dissertatsiyasi kitob holiga keltirilib, 1957 va 1959-yillarda rus va o‘zbek tillarida chop etildi. Ushbu tadqiqot fundamental asosga ega bo‘lib, o‘zbek tarixshunosligida yangi ilmiy yo‘nalish va maktab yaratgan, ensiklopedik ma’lumotlarni mujassamlashtirgan asar hisoblanadi. Olimning bu fundamental monografiyasi nafaqat qadimgi Xorazmning sug‘orish tarixi va rivojlanish dinamikasini ochib berdi, shu bilan birga, uning irrigatsiya texnikasini o‘rganib, murakkab ekologik muammolarning ilmiy va amaliy yechimini topib berdi.

Yahyo G‘ulomov qadimgi Xorazm sug‘orish tarixini yakunlagach, endi e’tiborni Zarafshon vodiysi qadimiyatini o‘rganishga qaratdi. Vodiyning sug‘orish tarixini to‘ng‘ich shogirdi A.Muhammadjonovga doktorlik mavzusi qilib berdi. Paleolit davri yodgorliklarini nomzodlik dissertatsiya mavzusi etib M.Qosimovga, Toshkent vohasining mustye davri Obihayot yodgorligini R.Sulaymonovga, Quyi Zarafshon neolit davri yodgorliklarini O‘.Islomovga, bronza davri yodgorliklarini A.Asqarovga, neolit davri shaxtalarini T.Mirsoatovga, Buxoro oazislarini o‘rab olgan “Kampir devor” deb ataluvchi voha mudofaa devorini mavzu qilib X.Muhammedovga yukladi, o‘zi esa ahil shogirdlar jamoasiga bosh-qosh bo‘ldi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab ustoz shogirdlari nafaqat Buxoro vohasida, balki butun respublika bo‘ylab har xil davr arxeologiyasi va irrigatsiya tarixini o‘rganishni deyarli o‘z qo‘llariga oldi. Farg‘ona vodiysi arxeologiya va sug‘orish tarixini I.Ahrorov, S.Jalilov va A.Abdulhamidovga, Toshkent vohasi sug‘orish tarixini G‘.Dadaboyevga mavzu qilib berdi. Xullas, Yahyo G‘ulomov rahbarligida fidoyi arxeologlar va sug‘orma dehqonchilik madaniyati mutaxassislarining ilmiy maktabi yaratildi. Ular safidan 60 dan ortiq fan nomzodi, o‘nlab fan doktori, 4 nafar akademik yetishib chiqdi.

Ustoz ijodida arxeologik materiallar tahlilidan to‘g‘ri tarixiy xulosa chiqarish qobiliyati juda kuchli edi. Masalan, agar S.Tolstov ijodida O‘rta Osiyo qadimgi davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish qonuniyatini, asosan, qadimgi shaharlar, oazislar misolida o‘rganishga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, Yahyo G‘ulomov ijodiyatida uni qadimgi Sharq sivilizatsiyalariga xos rivojlanish yo‘nalishlari hisoblangan sug‘orma dehqonchilik madaniyatlari bilan bog‘lab o‘rganish kuchli edi.

1958-yilda Samarqand Afrosiyobida monumental devoriy rangli suratlar topilishi munosabati bilan V.Shishkin rahbarligida Afrosiyobni o‘rganish masalasi O‘zbekiston rahbariyati tomonidan kun tartibiga qo‘yilib, keng ko‘lamli arxeologik izlanishlar boshlanib ketdi. Arxeologlar orasida Samarqandning yoshi masalasida ilmiy bahslar avj oladi. Bir guruh arxeologlar (S.Kabanov, M. Filanovich, G.Shishkina va boshqalar) Samarqandni ellinlar ta’sirida Marokanda deb atab, uning eng qadimgi madaniy qatlamlari miloddan avvalgi VI-IV asrlarga tegishli ekanini ta’kidlagan bo‘lsa, Afrosiyobda ishlovchi ikkinchi guruh arxeologlar (M.Pachos, O.Obelchenko va boshqalar) antik davrda Afrosiyob kichik bir qishloq bo‘lgani, uning atrofidagi mudofaa devorlari ilk o‘rta asrlarga tegishli ekanini isbotlashga urinadi. V.Shishkinning bevaqt o‘limi bu bahslarga chek qo‘ya olmadi. Uning vafotidan so‘ng Afrosiyobga ilmiy rahbarlik Yahyo G‘ulomov qo‘liga o‘tdi.

Mazkur tarixiy muammolar, angashilmovchiliklarga oydinlik kiritishda akademikning ilmiy salohiyati katta rol o‘ynadi. Keng ko‘lamli arxeologik qazishmalar, qadimgi Sug‘d hujjatlari va Afrosiyob mudofaa devorlarining obyektiv o‘rganilishi izga solindi. Samarqand qadimgi sug‘d hujjatlariga ko‘ra, Marokanda emas, balki Smarakansa deb nomlangani, uning yoshi 2500 yildan kam emasligi haqidagi materiallar bilan 1969-yilda olim Leningradga Butunittifoq arxeologlar va etnograflar sessiyasining yakuniy plenar majlisida ma’ruza qildi. Doklad mutaxassislar tomonidan gulduros qarsaklar bilan kutib olindi. Yakunlovchi plenar majlisga raislik qiluvchi akademik B.Piotrovskiy ilmiy asosli ma’ruzasi uchun Yahyo G‘ulomovni tabrikladi. Mening o‘zim o‘sha sessiya qatnashchisi sifatida bu hayajonli onlarning jonli guvohi bo‘lganim bilan faxrlanaman.

Ko‘plab ilmiy anjumanlarda fanning turli sohalari bo‘yicha qilgan chiqishlari asosida, hech bir mubolag‘asiz aytish mumkinki, ustoz fanda ko‘p qirrali, fundamental qomusiy olim bo‘lgan.

Ustoz ishga kelganlarida bir daqiqa bo‘sh vaqti bo‘lmas, doimo kimdir o‘z ilmiy muammosi bilan uning qabulida bo‘lardi. Ayni paytda biz, shogirdlari uchun ustoz xonadoni doimo ochiq edi. Ko‘p hollarda olim kimningdir nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyasini o‘qish bilan bandligi yoki kimdir ilmiy asariga taqriz so‘rab kelib turganining guvohi bo‘lardik.

Alohida ta’kidlash joizki, ushbu maqola O‘zbekiston arxeologiyasining birinchi sardori, zabardast, bag‘rikeng zukko olim, akademik Yahyo G‘ulomovning serqirra faliyatiga bir chizgi, xolos. Buyuk olimning ilmiy faoliyati, milliy arxeologiya sohasida yaratgan maktabi, fandagi ko‘p qirrali ijodi tarixchilarning kelajak avlodi uchun ibrat bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1146.
43313 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Abdurauf Qorjovov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05